

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

4- “A” kurs talabasi

BOLTAYEVA DILNOZA FAXRIDDIN QIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “ONA TILI DARSLARIDA MA’NODOSH (SINONIM) SO‘ZLARNI
O‘RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH”**

Talaba:

D.Boltayeva

Ilmiy rahbar:

f.f.d.,dots . Y.Ibragimov

Kafedra mudiri:

p.f.n.,dots. Sh.Yuldasheva

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2019- yil
10- maydagi 4- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2019

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-«A» kurs talabasi Boltayeva Dilnozaning “Ona tili darslarida ma’nodosh(sinonim) so‘zlarni o‘rgatishda innovatsion usullardan foydalanish “ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «___» ball («___%») qo‘yilsin.

«___» _____ 2019- yil

DAK kotibi:

O.Xaytboyev

MUNDARIJA:

KIRISH	4
BIRINCHI BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MA’NODOSH SO‘Z(SINONIM)LARNI O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Ma’nodosh so‘zlarni o‘rganishning ilmiy-nazariy masalalari	6
1.2. Ma’nodosh so‘zlarning leksik-semantik va funksional xususiyatlari	11
IKKINCHI BOB. LUG‘AVIY MA’NODOSH SO‘Z (SINONIM)LARNING MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TASNIFLANISHI	21
2.1. Leksik sinonimiya	21
2.2. Frazelogik sinonimiya	24
2.3. Leksik-frazelogik sinonimiya	25
UCHINCHI BOB. MA’NODOSH SO‘Z(SINONIM)LARNING SO‘Z TURKUMLARI JIHATDAN TAVSIFI	28
3.1. Ot so‘z turkumiga oid sinonimlarning leksik-semantik va funksional-uslubiy innovatsion tavsifi	28
3.2. Fe‘l so‘z turkumiga oid sinonimlarning leksik-semantik va funksional-uslubiy innovatsion tavsifi	36
3.3. Mavzu yuzasidan dars ishlanma	41
UMUMIY XULOSALAR	46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	49

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning tili uning tarixiy taraqqiyotidagi eng noyob va mukammal boyligidir. Shu sababli, har bir xalq ona tilining sofliги, kamoloti va rivoji uchun tinmay qayg`uradi muammolari bilan shug`ullanishga qiziqish kundan-kunga oshib boryapti. Asosan, o`zbek tilida ma`nodosh so`zlar o`zining leksik-semantik, funksional va uslubiy xususiyatlariga ko`ra, so`zning ma`no turlari ichida rang-barangligi jihatdan ajralib turadi. Bu kabi holatlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Turkiy tillarda, xususan, o`zbek tilshunosligida ham sinonimiya hodisasi tilning bir xil sathlari doirasida, asosan, so`z doirasida o`rganildi¹. Jumladan, A.Hojiyev, I.Qo`chqartayev, A.Doniyorov, A.Bolg`anboyev, M.Qalenderov, YE.Berdimuratov, H.Shamsiddinov va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog`liqligi. Bitiruv malakaviy ish mavzusi NDPIning "O`zbek tili" kafedrasida o`rganilayotgan "O`zbek tili va uni o`qitish metodikasining dolzarb masalalari" istiqbolli rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Sinonimlarning semantik-funksional va uslubiy xususiyatlarini ochib berish.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshishi quyidagi vazifalarni hal etishga bog`liq:

– o`zbek tilida sinonimlarning funktsional uslubiy jihatlarini tahlil etish;

– sinonim hodisalar va uning lingvistik tabiatiga munosabat bildirish;

– o`zbek tilidagi sinonimlarning semantik-funksional va uslubiy imkoniyatlarini sharhlash.

1. Болғанбоев А.Синонимия имён существительных в современном казахском языке. Авт.реф.дис. докт. филол. наук, Алма-Ата, 1971. Белдимуратов Е. Ҳазирги заман қарақалпақ тили лексикаси. Нөкис: Қарақалпақстан, 1964. Қалендеров М. Қарақалпақ тилиндеги синонимлер. Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. Ўша муаллиф. Қарақалпақ тилиндеги синонимлердиң грамматикалық, структурлық хэм лексика-семантикалық өзгешеликлери, Нөкис: Қарақалпақстан, 1989. Турсунов У.Т., Н.Ражапов. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги синонимлар ҳақида баъзи мулоҳазалар. Самарқанд давлат университети асарлари. Янги серия, ўзбек тилшунослиги кафедраси, Самарқанд, 1960, №102. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. Тошкент: Фан, 1963. Ўша муаллиф. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, Тошкент: 1974. Қаландаров М. Қарақалпақ тилиниң синонимлер сөзлиги. Нөкис: 1976.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotimizning obyekti sifatida o‘zbek yozuvchi va shoirlarining asarlari, matbuot materiallari kabi manbalardan to‘plangan faktik dalillar xizmat qiladi.

Tadqiqotning predmeti. Hozirgi o‘zbek tilida sinonimlarning semantik-funksional va uslubiy xususiyatlari.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik metod, ya’ni tadqiq jarayonida umumiylik va xususiylik yondashishda tilshunoslikning tavsifiy, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi:

- o‘zbek tilida sinonimlarning lingvistik tabiatiga munosabat bildirildi;
- sinonim leksemalarining ma’no ko‘chish sabablari o‘rganildi va izohlandi;
- o‘zbek tilidagi sinonimlarning matndagi imkoniyatlari sharhlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish nazariy jihatdan sinonimlarga xos semantik-uslubiy xususiyatlarni yanada chuqur anglashga asos yaratadi. Amaliy jihatdan esa turli o‘quv qo‘llanmalar, konspektiv kurslar, lug‘atlar tuzishda, monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish uchun material bo‘lib xizmat qila oladi.

Ishning sinovdan o‘tishi. Ish Ajiniyoz nomidagi NDPIning “O‘zbek tili” kafedrasida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Ishning tuzilishi. Tadqiqot kirish (Ishning umumiy tavsifi), uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

BIRINCHI BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MA’NODOSH SO‘Z(SINONIM)LARNI O‘RGANISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Ma’nodosh so‘zlarni o‘rganishning ilmiy-nazariy masalalari

Tilning u yoki bu hodisasini butun bir sistema sifatida o‘rganish uning u yoki bu mikrosistemasini tashkil etuvchi birliklarning tahlil jarayoniga qanchalik mukammal qamrab olinganligi bilan o‘lchanadi. Ana shunday mikrosistemalardan biri- tilning so‘z sathi sistemasining avtonom sistemasi hisoblangan sinonimiya hodisasi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham sinonimiya hodisasi tilning bir xil sath birliklari doirasida, asosan, so‘z doirasida o‘rganildi². Jumladan, A.Hojiev, I.Qo‘chqortoev, M.Isamuhammedov, A.Doniyorov, A.Bolg‘anboev, M.Sergaliev, Z.G.Uraksin, B.Abdullaev, M.Qalandarov, H.Shamsiddinov, E.Berdimuratov, D.S.Nasirov, A.Bekbergenov, M.Xasanov va boshqalar. Shuningdek, qardosh turkiy tillarda sinonimlar lug‘ati ham yoriqqa chiqdi³.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, sinonimiya hodisasi tilning bir xil sath birliklari doirasidagina emas, balki turli sath birliklari doirasida ham amal qilishni ko‘rsatmoqda. Vaholanki, tilning turli sath birliklari doirasida mavjud sinonimiyani o‘rganmay turib, tilning sinonimiya masalasi to‘liq o‘rganildi deb bo‘lmaydi.

Sinonimiya hodisasi o‘zbek tilshunosligida, asosan, semasiologik planda o‘rganildi, bu hodisaning funksional aspekti tilshunoslarimiz nazaridan bir muncha

1. Болғанбоев А. Синонимия имён существительных в современном казахском языке. Автореф. дис. докт. филол. наук, Алма-Ата, 1971. Бердимуратов Е. Ҳазирги заман қарақалпақ тили лексикаси. Нөкис: Қарақалпақстан, 1964. Қалендеров М. Қарақалпақ тилиндеги синонимлер. Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. Ўша муаллиф. Қарақалпақ тилиндеги синонимлердин грамматикалық, структурлық хэм лексика-семантикалық өзгешеликleri, Нөкис: Қарақалпақстан, 1989. Турсунов У.Т., Н. Ражапов. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги синонимлар ҳақида баъзи мулоҳазалар. Самарқанд давлат университети асарлари. Янги серия, ўзбек тилшунослиги кафедраси, Самарқанд, 1960, №102, Исамухаммедов. Синонимы в современном узбекском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. Ташкент, 1963., Ураксин З.Г. Фразеологические синонимы в современном башкирском языке, Автореф. дис. канд. филол. наук. Уфа, 1966..

2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. Тошкент: Фан, 1963., Ўша муаллиф. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, Тошкент: 1974. Болғанбоев А. Қазақ тилиндеги синонимлер сөзлиги. Алматы, 1975., Ураксин З.Г. Башқорт тилеия синонимдер сузлиги. Офа, 1965., Қаландаров М. Қарақалпақ тилинің синонимлер сөзлиги. Нөкис: 1976.

³Ҳожиёв А. Ўзбек тилида синонимларининг изоҳли луғати. Тлшкент: 1974., Қаландаров М. Қарақалпақ тилининг синонимлер созлиги. Нөкис 1978.

chetda qolib kelayotgan edi. Buning natijasida, sinonimlarning shaxs, narsa-hodisa, harakatga xoslanishi, shuningdek, adabiy tilning turli uslublariga xoslanishi masalalari ham alohida mavzu sifatida o'rganilmagan edi.

Sinonimiyaga aloqador va o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri-sinonimlarning nomlash bilan munosabati masalasi bo'lib, nomlash maqsadi va ifoda maqsadi ta'sirida yuzaga kelgan sinonimik birliklarni farqlamaslikdir. Shu tufayli ular sinonimik lug'atlarda aralash berilmoqda. Dalilarning tasdiqlashicha, ikkilamchi nomlashga mansub vositalarning aksari bir denotatning nomi sifatida band bo'lgan birlik bilan atash orqali yuzaga keladi. Bunday sinonimik birliklarni yuzaga keltiruvchi lisoniy va nolisoniy omillarning inson ruhiyati bog'liq tarzda amal qilishi, ya'ni inson omili boshqarishi o'rganilgan emas.

So'zning o'z ma'nosi orqali va funksional ma'nosi orqali sinonimik munosabatga kirishuvi asosida yuzaga kelgan sinonimlar so'zga sinonim bo'lishiga ko'ra, ikki yo'nalishni tashkil etib, ikki sinonimik qatorga ajralishi mumkin bo'ldi. Bu jihati hisobga olingan holda ular o'z nomiga ham ega bo'lishi zarur. Sinonimiyani bu aspektda o'rganish lug'aviy sinonimik vositalarning yadro katlamini va periferik qatlamni aniq belgilashga yo'l ochadi. Bu borada o'zbek tilshunos olimlarimizdan I.Qo'chqortoev, H.Shamsiddinovlarning dastlabki intilishlari tahsinga loyiq⁴. Ushbu tadqiqotlarda bahstalab va munozaratalab o'rinlar bo'lishidan qat'iy nazar, bu masala ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingani bilan qimmatlidir. Tadqiqot sinonimik vositalarning periferik qatlami haqida muayyan tasavvur beradi va unga yana qanday birliklarni qo'shish mumkin degan savolni qo'yish hamda unga javob topishga ham ma'lum yo'nalish beradi.

Bu jihatdan ikkilamchi nomlashga mansub holda alohida so'z bilan sinonimik munosabat tashkil etadigan tilning so'z va undan katta sath ko'rinishidagi birliklarning tabiatini o'rganish tilshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. *Bizning ham «O'zbek tilida sinonimlarning uslubiyat bilan bog'liqligi»*

⁴ Кўчқортоев И.Луғавий синонимик воситалар ва уларнинг асосий турлари.»Ўзбек тили ва адабиёти»,1984.4-сон.Б:3-8.,Шамсуддинов Х.Ўзбек тилида синонимларнинг функционал-семантик синонимлари.Автореф.доктор.дис.филол. фанлари.Тошкент:1989.

mavzusida shu masalaga bag'ishlangan Bitiruv malakaviy ishimiz mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Jamiyatda kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifasini amalga oshiruvchi til-til boyligi, asosan, so'zlardan tashkil topadi. Ya'ni til boyligi, til materialini so'zlardan iborat bo'lib, u yoki bu tildagi so'zlarning jami o'sha tilning lug'at tarkibini leksikasini tashkil qiladi.

Tilning lug'at boyligi uning leksik sistemasi deb yuritiladi. Leksik sistemaning asosiy, muhim birligi, belgisi bo'lgan so'z shakl va mazmun tomoniga, tovush va ma'no tomoniga egaligi bilan ijtimoiy-amaliy va ilmiy qiymatga ega bo'ladi.

Tilning muhim, asosiy birligi bo'lgan so'z boshqa til birliklari: fonema, morfema, frazeologik iboralar ichida ma'no (semantik) jihatdan rang-barang, eng murakkab birlik hisoblanadi. So'zni universal til birligi deyishimizga sabab har bir so'z tovush (lingvistik ramz sifatida) va ma'noga ega bo'lishdan, o'z tarkibiga fonema va morfema kabi alohida til birliklarini olishidan tashqari, u gapning vazifasi bo'lgan fikr ifodalashni ham bajaradi. So'z gap bo'lib kela oladi. So'zga xos bu xususiyat, ayniqsa, fe'llarga tegishli. Qiyoslang: o'qidim-men o'qidim, olasan-sen olasan va boshqalar.

U yoki bu tildagi har bir so'z o'z belgi va xususiyatlarining birligidan iborat muayyan element, qirra, tomon, imkoniyatlarga ega o'ziga xos sistemachadir.

So'zni nominativ funksiyani bajarishda tilning haqiqiy, jonli, asosiy birligi sifatida olish va shunday tushunish so'zga substansial yondashuv natijasidir. Aniqrog'i, so'zga substansial yondashuvda so'z o'zida mavjud barcha belgi va xususiyatlarni, jihat va munosabatlarni tashuvchi bularga ega butunlik sifatida namoyon bo'ladi.

So'z til birligi bo'lishi bilan birga nutq birligi hamdir. Ham til birligi, ham nutq birligi bo'la olish imkoni til birliklari ichida faqat so'zga xosdir. So'zni nutq birligi deganda so'zning mohiyatini gapda o'rganish va aniqlashdan kelib chiqilsa, til birligi deganda so'zni gapdan tashqarida o'rganish ko'zda tutiladi.

Soʻzlarning nutqda nutq birligi sifatida oʻrganilishi muhimdir. Chunki soʻz har qanday soʻz birikmasi va gap konstruksiyasining kontekst va tekst kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi materiali sanaladi. Kommunikativ jarayon, fikr almashish, aslida, soʻzlardan, ularning semantik sintaktik bogʻlanishidan sodir boʻladi.

Shunday qilib, soʻz til va nutqning eng muhim elementlaridan biri boʻlib, shunga koʻra u leksikologiyada ham, grammatikada ham oʻrganiladi. Til elementi, til birligi sifatida soʻz maʼlum maʼno anglatuvchi nutq tovushi yoki tovushlar kompleksi boʻlsa, nutq elementi sifatida u soʻz birikmasi yoki gapning maʼlum maʼno va grammatik xususiyatga ega boʻlgan eng kichik qismidir.

Soʻz oʻzining tovush materiali, ifodalangan maʼnosi va maʼlum grammatik xususiyatining (tuzilishi, oʻzaro birikish paytidagi oʻzgarishi va b.) birligidan iboratdir.

Soʻzning maʼno tomoni (yoki semantikasi) uning narsalar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar bilan bogʻlanishidan kelib chiqadi; bu toʻgʻridan toʻgʻri, bevosita bogʻlanish boʻlmay, borliqning kishi ongida aks etishi orqali amalga oshadi. Kishining borliqni bilishi, ongida aks ettirishi soʻzning maʼnosida oʻz aksini topadi. Chunki borliqni bilish narsalar, hodisalar haqida tushunchaga ega boʻlishdir. Bu esa predmetlarni umumiy va muhim belgilari asosida boshqa predmetlardan ajratish demakdir. Inson tajribasining umumlashtirilgan natijasi boʻlgan ana shu tushuncha soʻz maʼnosining asosini, yadrosini tashkil qiladi. Soʻz tushunchadan tashqari baʼzan kishining anglatayotgan narsa yo hodisaga boʻlgan salbiy yoki ijobiy munosabatini ham ifodalashi mumkin. Masalan, kalla, chehra, turq.

Demak, har qanday soʻz, avvalo, tovush va maʼno birligiga ega boʻladi. Bu esa soʻzning fonetik va semantik tomonini tashkil qiladi. Soʻzning tovush tomoni uning maʼnosini reallashtiruvchi, yuzaga chiqaruvchidir. Xuddi shu tovush tomoni (tovush qiyofasi) bilan soʻzning maʼnosi tinglovchiga yetadi, tushuniladi. Demak, u soʻzning maʼnosi uchun, uning reallashuvi uchun xizmat qiladi.

Soʻzning maʼnosi maʼlum tovushlar kompleksida reallashishi sababli, bu maʼnoni tovushlar kompleksi, tovushlarning maʼlum tartibdagi birligi hosil qilayotganda, tovushlar maʼnosining birligi soʻzning maʼnosidan iboratdek koʻrinadi. Haqiqatda esa, bunday emas. Garchi tovushsiz soʻz boʻlmasa-da, biroq u yoki bu soʻzning mazmuni shu soʻzni tashkil etgan tovushlar *maʼnosining* yigʻindisidan chiqmaydi. Tovushlar (fonemalar) maʼnoga ega emas. Shuning uchun tovushlarning har qanday kompleksi maʼno ifodalayvermaydi. Masalan, *o, d, a, m* tovushlaridan iborat odam tovush kompleksi maʼlum maʼno ifodalangani holda (soʻz boʻlgani holda), shu tovushlarning *admo, adom* yoki *odma* kompleksi hech qanday maʼnoga ega emas va ular soʻz ham emas. Xuddi shu fonemalardan tashkil topgan *omad* ham maʼnoga ega va soʻz hisoblanadi. Lekin u *odam* soʻzidan tamomila boshqa soʻz. Agar soʻzning maʼnosi undagi tovushlar maʼnosiga va bu tovushlarning maʼlum tartibda joylashuviga (tartibiga) bogʻliq boʻlganida har qanday soʻzning maʼnosini undagi tovushlar va bu tovushlarning tartibi asosida izohlash shu yoʻl bilan soʻzning maʼno asosini topish mumkin boʻlar edi. Haqiqatda esa, bunday qilib boʻlmaydi.

Soʻzning ikkinchi muhim belgisi maʼlum maʼnoga egaligidir. Lekin soʻzlar ifodalaydigan maʼnolar bir xil emas. Ular eng umumiy xususiyatlari bilan ham turli tipga boʻlinadi.

Soʻz deganda odatda mustaqil soʻzlar (narsa, belgi, harakat bildiradigan soʻzlar) eʼtiborda boʻladi.

Aytilganidek, har qanday soʻz shakl va maʼno butunligiga ega boʻladi. Soʻzning fonetik shakli uning maʼnosini reallashtiradi. Boshqacha aytganda, tovush yoki tovushlar kompleksida soʻzlar oʻz maʼno xususiyatlari bilan oʻzaro turli munosabatda boʻladi. Baʼzi soʻzlar maʼnolari bilan oʻzaro bir-birlariga yaqin boʻlsa, baʼzi soʻzlar bir-birlarini maʼno yoʻnalishida inkor qiladilar (yaʼni zid maʼnoli boʻladilar). Maʼnolari bogʻlanmasa ham, tashqi tomonlari tilning, yozilishi bir xil boʻlgan soʻzlar ham boʻlib, biri boshqasining mavjudligini eslatib turadi. Shunga koʻra, bunday soʻzlar omonim, sinonim va antonimlar deb guruhlariga ajratiladi.

1.2. Ma'nodosh so'zlarning leksik-semantik va funksional xususiyatlari

Lisoniy adabiyotlarda sinonimlar *bir xil ma'noli* yoki *bir-biriga yaqin ma'noli* so'zlar sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar ikki yoki undan ortiq so'zning sinonimligini belgilanadigan ma'no emas, balki ular ifodalaydigan tushuncha asosga olinishi kerakligini ta'kidlaydilar va sinonimlarni bir xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalovchi so'zlar deb baholaydilar.

Sinonimlarni *bir-biriga yaqin* ma'noli so'zlar bo'lib, bir xil tushunchani bildiruvchi so'zlar deb ta'riflovchilar ularning (sinonimlarning) ma'nosi va boshqa xususiyatlari jihatidan o'zaro teng bo'lmasligini nazarda tutadilar. Aytish kerakki, ma'nosi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birini to'la qoplaydigan, bir-biriga mutlaqo teng bo'lgan sinonimlar yo'q darajada buni nazarda tutib, "*bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar*", shuningdek, "*bir xil yoki bir-biriga yaqin tushuncha ifodalovchi so'zlar*" deb ta'riflash to'g'ri bo'lmaydi.

Til hodisalari bir guruhga, bir turga birlashar ekan, bu birlashishi ulardagi yaqinlik asosida emas, balki birlik asosida bo'ladi. Yaqinlik yaqinlashtiradi, lekin birlashtirmaydi. *Demak, ikki va undan ortiq so'z ma'nosi asosida o'zaro birlashar ekan, o'zaro birlik hosil qilar ekan, o'z-o'zidan, ularning ma'nosida bir xillik bor bo'ladi. Masalan, guvoh, shohid so'zlari "biror voqea-hodisani o'z ko'zi bilan ko'rgan, uni tasdiqlovchi shaxs ma'nosini bildiradi, ya'ni ikkalasi ham shu ma'noga ega. Ikkalasida ham bo'lgan ana shu ma'no bu so'zlarni birlashtiradi, sinonim qiladi"*.

Ma'nodagi yaqinlikka qarab, so'zlarning sinonimligini belgilab bo'lmaydi. Chunki so'zlarning ma'nosi jihatdan yaqinligi har xil darajada bo'lishi mumkin. *Ba'zi so'zlar ma'no jihatidan boshqa so'zga juda yaqin bo'lsa, boshqa bir so'zga yaqinligi nisbatan kuchsiz bo'lishi, yana bir so'zga ma'no jihatidan yaqinligi mumkin. Lekin har uch holatda ham ma'no jihatidan yaqinlik bo'ladi. Shunga ko'ra* ikki va undan ortiq so'zning o'zaro sinonimligini belgilashda ma'nodagi yaqinlik asosga olinadigan bo'lsa, u holda ma'nosi bir-biriga juda yaqinligi bor bo'lgan so'zlar ham sinonim deb qaralishi kerak bo'ladi. Masalan, *kulmoq,*

iljaymoq, irjaymoq, jilmaymoq, xaxolamoq, qiqirlamoq, hehelamoq, qahqahlamoq, piqirlamoq soʻzlarining maʼnosida qay darajada boʻlmasin, yaqinlik bor. Lekin bularning hammasi oʻzaro sinonim deb boʻlmaydi. Buni *jilmaymoq* bilan *piqirlamoq, qahqahlamoq* bilan *qiqirlamoq* soʻzlarida ham sezish mumkin.

Sinonimlarni belgilashda soʻz bildirgan tushunchani asosga olish maʼnoni asosga olishdan biror afzallikka ega emas. Asosiy dalil sifatida shuni aytish kifoyaki, har qanday soʻz tushuncha ifodalayvermaydi. Lekin u maʼnoga ega boʻladi va tushuncha ifodalamaydigan bunday soʻzlar biror maʼnosi bilan oʻzaro sinonim boʻlishi mumkin. Masalan, *hamma, barcha, bari* olmoshlari; *balli, barakalla, qoyil, tasanno, ofarin, yashang, oʻlmang*, tahsin undovlari, istak bildiruvchi *zora, shoyad, koshki, qani* soʻzlari va boshqalar.

Xullas, ikki va undan ortiq soʻzning oʻzaro sinonimligini belgilashda maʼnoga asoslanish toʻgʻri boʻladi.

Soʻzning maʼnosi maʼlum komponentlardan tashkil topadi. Bundan tashqari, soʻzning turli maʼno ottenkalari, emotsional boʻyogʻi, stilistik belgisi, boshqa soʻzlar bilan bogʻlanish xususiyati kabilar ham kiradi. Demak, sinonimlarning maʼnodagi ana shu komponentlar nuqtai nazaridan oʻzaro munosabati qanday ekanini belgilash kerak boʻladi.

Sinonim-soʻzlar semantik strukturasiidagi komponentlar ichida ularni oʻzaro birlashtiradigan (sinonim ekanini belgilaydigan) va farqlaydigan boʻladi.

Ikki va undan ortiq soʻzni oʻzaro sinonim qiladigan narsa bu soʻzlar semantik strukturasiidagi asosiy qismning, yaʼni leksik maʼnoning bir xilligi, leksik maʼnoni yuzaga keltiradigan komponentlarning bir xil boʻlishidir. Shuning uchun ham ikki yoki undan ortiq soʻzning oʻzaro birlashtiradigan-sinonim qiladigan maʼnosining izohi bir xil boʻladi. Masalan, *tez, ildam, jadal*; soʻzlarning hammasi “normadan yuqori belgi (surʼat) bilan” degan maʼnoni bildiradi. Ularning biri oʻz semantik strukturasiida yana boshqa qoʻshimcha komponentlarga ega boʻlishi mumkin. Lekin hammasining maʼnosini maʼnodagi “normadan yuqori surʼat bilan” degan qism tashkil etadi, yaʼni hammasining semantik strukturasiidagi asosiy narsa, leksik

ma'noni belgilovchi narsa ana shu. Ma'nodagi xuddi ana shu *umumiylilik, birlik* bilan *tez, ildam, jadal* so'zlari sinonimni hosil etadi.

Demak, ikki va undan ortiq so'zni o'zaro sinonim etadigan narsa bu so'zlar leksik ma'nosining mavjud bo'lgan bir xil bo'lishidir. Agar leksik ma'no bir xilda bo'lmasa, sinonim haqida gapirish mumkin bo'lmaydi. *Masalan, qaramoq, boqmoq, tikilmoq, termilmoq, to'nmoq* so'zlari, *umuman olganda, "biror narsa yoki tomonga ko'z-nazarini yo'naltirmoq, ko'z tashlamoq"* ma'nosini bildiradi. *Lekin termilmoq, tikilmoq, to'nmoq fe'llari umuman "qarash" ma'nosini emas, balki ko'z olmagan holda bo'lishni, ko'z tikkan holatda bo'lishni bildiradi. Demak, bularning ma'nosida "ko'z uzmaganda holda, ko'z tikkan holda" komponenti bor. Qaramoq, boqmoq so'zlarining ma'nosida bu komponent yo'q. Ko'z uzmasdan qarash ma'nosining aniq ifodalanishida qaramoq, boqmoq so'zlarining ma'nosida bu komponent yo'q. Ko'z uzmasdan qarash ma'nosining aniq ifodalanishida qaramoq, boqmoq so'zlari boshqa vositalar bilan yoki termilmoq, tikilmoq so'zlarining o'zi bilan qo'llanadi: Shu vaqtgacha kallasini solintirib, o'yga botib o'tirgan otasi o'g'liga termilib qaradi. (M.Ismoilijon). Qiya ochilgan eshikdan tikilib qaragan qizning endi ko'chada nimchasini yuziga pana qilib turishi g'alati bo'lsa ham, Elmurod... (P.Tursun). To'yib qarashlaridan hayot sochilar edi. Gullar ochilar edi (H.Olimjon). Demak, qaramoq, boqmoq, tikilmoq, termilmoq, to'nmoq so'zlari o'zaro emas, balki qaramoq bilan boqmoq va termilmoq, tikilmoq, to'nmoq so'zlari o'zaro sinonim bo'ladi.*

Ikki va undan ortiq so'zning sinonimligini belgilashda leksik ma'no bilan so'zning kontekstda reallashadigan ma'nosini farqlash kerak bo'ladi. Sinonimlik leksik ma'noning bir xilligiga ko'ra bo'ladi. Leksik ma'no bilan kontekstda reallashadigan ma'no asosida sinonimlik hosil bo'lmaydi.

Sinonimlik leksik ma'noning bir xilligiga ko'ra bo'lar ekan, o'z-o'zidan, sinonimlar bir turkumga oid so'zlar bo'ladi. Shunga ko'ra, ma'lum kontekstda bir turkumga oid so'z boshqa bir turkumga oid so'zga xos ma'noda qo'llansa-da, lekin ular sinonim bo'la olmaydi.

Sinonimlik ma'noga ko'ra, ma'nodagi bir xillikka ko'ra bo'lar ekan, o'z-o'zidan, ikki yoki undan ortiq so'zning butunlay sinonimligi emas, balki u yoki bu ma'nosida sinonimligi haqida gapirish to'g'ri bo'ladi. Chunki, tildagi so'zlar bir ma'noli yoki ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'no miqdori har xil bo'lishi mumkin. Ya'ni ba'zi so'zlar ikki-uchta ma'noga, ba'zilari esa, juda ko'p ma'noga ega bo'ladi. Bunday so'zlar boshqa ko'p ma'noli so'z bilan ma'lum bir ma'nosi yoki ma'nolarida sinonimlik hosil etadi. *Masalan, toza, sof, beg'ubor, musaffo so'zlarining har biri ko'p ma'noli. Lekin ular faqat bir ma'noda "chang-g'ubordan xoli" degan ma'noda o'zaro sinonimdir.*

Demak, ikki yoki undan ortiq so'zning sinonimligi ularda hammasi uchun umumiy ma'noning borligini ko'rsatadi. Biror so'zning boshqa so'z yoki so'zlarga sinonimligi har vaqt konkret bir birlashtiruvchi ma'no bilan bo'ladi. Birlashtiruvchi ma'no o'zaro sinonim bo'lgan so'zlarning hammasida bo'ladi. Bu sinonimlarning birlik, umumiylik tomoni, xususiyatidir. *Birlashtiruvchi ma'no bo'lmasa, sinonimlik haqida gapirish mumkin emas.*

O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'zlar (ma'nosida bir xillik bo'lgan so'zlar) sinonimik qatorni tashkil qiladi. Masalan, *o'yin, raqs; yanglish, xato; g'alaba, zafar, tantana, muzaffariyat* va boshqalar.

Ma'nodosh so'zlarning semantik strukturasi bir xil bo'lgan qism birlashtiruvchi leksik ma'nodan tashqari yana boshqa qismlar har bir sinonimda o'ziga xos, boshqasidagidan farqli bo'ladi. Ana shu farqlar sinonimlardan har birining tilda yashashini, tilda har birining qo'llanish o'rnini ta'minlaydi. Tilda har jihatdan bir-biriga teng bo'lgan, har jihatdan bir-birini qoplaydigan ikki yoki undan ortiq so'zning bo'lishiga ehtiyoj yo'q. Ehtiyoj yo'q ekan, bunday xususiyatli so'zlar ham bo'lmaydi. Demak, tilda sinonimlarning borligining o'ziyoq o'zaro sinonim bo'lgan har bir so'z o'ziga xos qandaydir xususiyatga egaligini ko'rsatadi. Haqiqatda ham, shunday ma'nosi va boshqa xususiyatlar bilan bir-biriga juda teng keladigan so'zlar asosan ilmiy terminlarda uchrab turadi: tema, mavzu; agitatsiya, tashviqot; ideya, g'oya; Lekin bunday sinonimlar ham qandaydir belgisi, masalan, qo'llanishda eskirganlik yoki eskirmaganligi va shu kabilar bilan ma'lum darajada

farqlanib turadi. Agar hech qanday farqli belgi bo'lmasa, bunday sinonimlik o'tkinchi holat bo'lib, ma'lum vaqtlardan so'ng ulardan biri shu ma'noda iste'moldan chiqadi. Tilning tabiati shuni talab qiladi.

Ma'nodosh so'zlarning o'zaro farqli xususiyatlari ancha bo'lib, bulardan eng asosiysi, muhimi ularning har birining ma'nosidagi farqli belgilardir.

Sinonimlarning o'zaro farqli belgisi, avvalo, ularning ma'no hajmida, aniqrog'i, ma'no ottenkasida ko'rinadi. Masalan, o'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan biri biron qo'shimcha ottenkaga ega bo'lmasligi, boshqasi esa qandaydir ottenkaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yordamlashmoq, ko'maklashmoq, qarashmoq, boqishmoq so'zlari "yordam ko'rsatmoq" ma'nosi bilan o'zaro sinonim. Bu sinonim til birliklari ichida yordamlashmoq so'zining ma'no hajmi keng. U biron qo'shimcha ottenkaga ega emas. Bu so'z moddiy jihatdan shuningdek, ish-harakat va shu kabilar bilan yordam ko'rsatish ma'nosida qo'llanaveradi. Ko'maklashmoq, qarashmoq, boqishmoq so'zlari, asosan, ish-harakat, xizmat bilan yordam ko'rsatish ma'nosida qo'llanadi.

Demak, sinonimlarning o'zaro farqli xususiyatlaridan biri ularning qo'shimcha ottenkaga ega yoki emasligi bo'lib, bu xususiyat shu sinonimik qatordagi so'zlarning qo'llanish doirasini, qo'llanish o'rnini ham belgilaydi.

Sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor kabilarda ularning har birida belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, avval, oldin, ilgari, burun, qadim sinonimlaridan ilgari so'zida vaqtning o'tishiga qarab, uzoqlik darajasi avval, oldin so'zlaridan ortiq. Burun so'zida ilgari so'zidagiga nisbatan, qadim so'zida esa burun so'zidagiga nisbatan ortiqroq.

Sinonimlar emotsional bo'yoqqa bo'lgan munosabatiga ko'ra, o'zaro farqlanishi mumkin. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlarning ba'zilari emotsional bo'yoqli bo'lishi, ayrimlari esa emotsional bo'yoqqa ega bo'lmasligi mumkin. Emotsional bo'yoqli sinonimlar salbiy yoki ijobiy emotsiyani (salbiy yoki ijobiy munosabatni) bildirishiga ko'ra ham o'zaro farqlanadi:

1. Ijobiy emotsional bo'yoqli so'zlar. Masalan, *bosh, kalla* so'zlaridan *bosh* so'zi emotsional bo'yoqqa ega emas, *kalla* so'zi ko'proq salbiy emotsional bo'yoq

bilan qo‘llanadi. Masalan, *yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol* sinonimlaridan *yuz* va *bet* so‘zlari emotsional bo‘yoqqa nisbatan neytral, *aft* va *bashara* so‘zlari salbiy emotsional bo‘yoqqa, *chehra, jamol* so‘zlari esa ijobiy emotsional buyoqqa ega.

O‘zaro sinonim bo‘lgan so‘zlar ma’lum bir uslubga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham bir-biridan farqlanishi mumkin. Ya’ni sinonim so‘z uslubning ma’lum bir turiga oid bo‘lishi yoki uslub nuqtai nazaridan neytral bo‘lishi mumkin.

Sinonimlar ichida dialektal xususiyatga ega so‘z bo‘lishi mumkin. Masalan, *ovoz, tovush, un, sado, sas, nido* sinonimlaridan *sas* so‘zi, *izlamoq, qidirmoq, axtarmok, istamoq* sinonimlaridan *istamoq* so‘zi dialektal.

O‘zaro sinonim so‘zlar qo‘llanish darajasiga ko‘ra farqlanadi. Ya’ni ba’zi keng qo‘llanishi, boshqasi esa kam qo‘llanishi mumkin. Masalan, *boshqa, bo‘lak, o‘zga* sinonimlaridan *boshqa* so‘zi juda keng qo‘llangan holda *bo‘lak* so‘zi kam qo‘llanadi. *O‘zga* so‘zi esa *bo‘lak* so‘ziga nisbatan ham kam qo‘llanadi.

Sinonimlar ma’lum bir so‘zlar bilan birika olish yoki birika olmaganligi, ma’lum erkin yoki turg‘un so‘z birikmalarida qo‘llana olish yoki qo‘llana olmaslik xususiyati bilan ham o‘zaro farqlanishi mumkin. Masalan, *ost, tag* sinonimlaridan *ost* so‘zi *xavf ostida, qo‘l ostida, nazorat ostida, oyoq osti qilmoq* kabi birikmalarda qo‘llangani xolda, bu birikmalarda uning o‘rnida *tag* so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi.

Aytib o‘tilganlardan ma’lum bo‘ladiki, sinonimlar birlashtiruvchi bir xil ma’noga ega so‘zlar bo‘lsada, lekin bir-biridan farqli turli xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Sinonimlardan unisi yoki bunisini qo‘llashda ana shu farqli xususiyatlarni anglab yetish fikrni maqsadga muvofiq ravishda, voqea-hodisani to‘laligi bilan ifodalash imkonini beradi. Demak, sinonimlarning bu xususiyatlari tilning boyligini, fikr ifodasidagi imkoniyat darajasini ham ko‘rsatadi. Bulardan tashqari, *sinonimlar nutqda qaytariqlarga yo‘l qo‘ymaslik, nutqni ravon tuzish imkonini ham beradi.* Voqealidagi bir narsani (predmet, belgi, harakat kabilarni) ifodalash uchun birdan ortiq so‘zning (sinonimning) bo‘lishi xuddi ana shu hodisalar bilan izohlanadi. O‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘zlar birlikda sinonimik

qatorni hosil qilishi va bu undan ortiq soʻzlar bilan shakllanishi maʼlum boʻldi. Yaʼni sinonimik qatorning chegarasi chegaralanmagan miqdori turlichadir.

Sinonimik qator nechta soʻzdan iborat boʻlishidan qatʼiy nazar unda bir soʻz asosiy, shu sinonimik qatorning xarakterini belgilovchi soʻz boʻladi. Bu soʻz **dominanta** deb yuritiladi. Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda, shuningdek, undagi har bir soʻzning oʻziga xos xususiyatini ochishda shu qatordagi dominantani (asosiy soʻzni) toʻgʻri belgilash muhimdir. Demak, dominantani toʻgʻri belgilash, ayniqsa, sinonimlar lugʻatini tuzishda muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Dominanti soʻz sinonimik qatordagi soʻzlar uchun umumiy boʻlgan maʼnoni juda aniq ifodalaydi. Masalan, *kechirmoq, hayallamoq, uzoqlamoq* sinonimik qatorida *kechirmoq* soʻzi shunday xususiyatga ega. Dominantada sinonimik qatordagi soʻzlarga xos umumiy maʼno aniq ifodalanishi sababli, soʻzlarning oʻzaro sinonimligini belgilashda- sinonimik qatorning chegarasini belgilashda *dominanta* asosga olinadi, boshqa soʻzlar bilan bir-biriga qiyoslanmaydi, balki **dominantaga** qiyoslanadi.

Sinonimik qatorda maʼno hajmi boshqalarnikiga nisbatan koʻp boʻlgan soʻz **dominanta** hisoblanadi. Masalan, *boshliq, rahbar, yoʻlboshchi, ishboshi, boshchi, katta, kattakon, ulugʻ, rahnamo, sardor, peshvo, sarvar, sarkarda, xoʻjayin, kalampo* sinonimik qatorida *boshliq* soʻzining, *kuch quvvat, mador, majol, darmon* sinonimik qatorida *kuch* soʻzining maʼno hajmi shu sinonimik qatorlardagi boshqa soʻzlarning maʼno hajmiga nisbatan keng, shu sababli, *dominanta* hisoblanadi.

Sinonimik qator dialektal xususiyatga boʻlgan munosabatiga koʻra oʻzaro farqlanadigan soʻzlardan iborat boʻlganida adabiy tilga xos soʻz **dominanta** boʻladi, **dialektal soʻz hech qachon dominantaga boʻla olmaydi.** Masalan, *jilmaymoq, irjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq, tirjaymoq* sinonimik qatorida *jilmaymoq* emotsional boʻyoqqa nisbatan neytral qolgan soʻzlar esa salbiy emotsional boʻyoqli. Shu sababli, bu sinonimik qatorda *jilmaymoq* soʻzi *dominanta* hisoblanadi.

Sinonimiya til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi nuqtai nazaridan belgilanadi. Til taraqqiyoti jarayonida so'zlarning sinonimik munosabatida ham o'zgarish bo'lib turadi.

Sinonimlar tilda ikki hodisa natijasida paydo bo'lishi mumkin. **Birinchidan**, tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi bilan, **ikkinchidan**, tilda bor bo'lgan so'z yana yangi ma'no kasb etishi bilan. Bu degan so'z tilda yangi so'zning paydo bo'lishi yoki tilda bor bo'lgan yangi so'z yangi ma'no kasb etishi, albatta, sinonimning paydo bo'lishiga olib keladi degan so'z emas. Lekin xuddi shu ikki hodisa asosidagina tilda yangi sinonimlar yuzaga kelishi mumkin. Chunki tilda yangi so'z paydo bo'lar ekan, u ma'lum bir ma'noga ega bo'ladi. Uning bu ma'nosi tildagi biror so'z yoki so'zlarning ma'nosi bilan bir xillikka ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. **Birinchi holatda** yangi sinonim paydo bo'ladi. **Ikkinchi holatda** esa yangi so'z paydo bo'lishidan qat'i nazar sinonim yuzaga kelmaydi. Shuningdek, tilda bor bo'lgan so'z qandaydir yangi ma'no kasb etar ekan, bu ma'nosi boshqa so'z yoki so'zlarning ma'nosi bilan bir xillikka ega bo'lishi mumkin. Bunday taqdirda ham so'zlarning yangi sinonimik munosabati, yangi sinonim yuzaga keladi.

Tilda yangi so'zlar, asosan, o'zga tildan so'z qabul qilish va tilda mavjud bo'lgan so'zlar bazasida yangi so'z yasash orqali paydo bo'ladi. Adabiy tilning yangi so'z hisobiga boyishi nazarda tutilganda, ma'lum dialekt yoki shevaga oid so'zning adabiy tildan o'rin olish hodisasini ham hisobga olish kerak bo'ladi.

Boshqa tilga oid so'z bilan sinonim deb baholanish uchun, avvalo, ular bir xil ma'noga ega bo'lishi kerak. **Ikkinchidan**, o'zlashgan so'z shu tilning leksik birligiga (shu tilning so'ziga), aytilgan bo'lishi shart. Ma'lum sabablar bilan badiiy asarlarda qo'llanadigan, shuningdek, oddiy so'zlashuv nutqida uchraydigan, asosan til nuqtai nazaridan norma hisoblanmaydigan o'zga tilga oid so'z hech vaqt o'z tildagi so'z bilan sinonim bo'la olmaydi.

Dialektal xususiyatli so'z bilan adabiy tilga xos so'zning sinonimligini belgilashda ham dialektal so'zning qay darajada adabiy tilga yaqinligini, qay

darajada adabiy tilda o'zlashuvchilarga tushunarli ekanini hisobga olish kerak bo'ladi.

U yoki bu usul bilan so'z yasalishi natijasida ham tilda yangi so'zlar paydo bo'la boradi. Bunday so'zlar tildagi boshqa so'zlar bilan ma'noda bir xillikka ega bo'lsa, yangi sinonimlar yuzaga keladi.

Tilda yangi paydo bo'lgan o'z tildagi biror so'z bilan yoki o'zaro sinonim bo'lgan bir necha so'z bilan sinonimik munosabat hosil qilishi mumkin. ***Birinchi holatda*** yangi sinonimik qator yuzaga keladi. ***Ikkinchi holatda esa***, tilda bor bo'lgan sinonimik qatorda yangi so'z qo'shiladi, sinonimik qatorning chegarasi kengayadi. Masalan, *muharrir, redaktor; ziyoli, intelligent; o'rinbosar, muovin* va boshqalar.

Leksikaning boyishida ichki imkoniyatlar, ayniqsa, so'z yasalishi asosiy o'rin tutishi ma'lum. Sinonimlarning paydo bo'lishi so'zlar o'rtasida sinonimik munosabatning rivojlanishida ham u yoki bu usul bilan so'z yasalishi muhim rol o'ynaydi. Yangi so'z yasalishi bilan tilda bor bo'lgan so'z yoki so'zlarga sinonim so'z yuzaga kelibgina qolmay, tilda o'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'zlardan so'z yasalishi natijasida yangi sinonimik qatorlar yuzaga keladi: *zavq, maroq, shavq-zavqlanmoq, maroqlanmoq, shavqlanmoq; kam, oz-kamaymoq, ozaymoq*.

Sinonimlarning yuzaga kelishida asosiy omillardan biri so'zning ma'no taraqqiyotidir. U yoki bu so'z yangi ma'no kasb etishi natijasida shu ma'nosi bilan tildagi biror so'z yoki so'zlar bilan sinonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, *qaytarmoq* fe'li aslida avvalgi o'z o'rni, o'z holicha yo'naltirmoq (keltirmoq) degan ma'noni bildiradi. Shu ma'nosi asosida uning ayni bir ish-harakatni yana *qilmoq*, ayni bir so'zni *qayta (bir necha marta) aytmoq* ma'nosi kelib chiqadi. Natijada *qaytarmoq* so'zi xuddi shu ma'nosi asosida takrorlamoq so'zi xuddi shu ma'nosi asosida *takrorlamoq* so'zi bilan sinonimik munosabat hosil qilgan. Masalan, *tabelchi* ham, xuddi jo'rttaga qilganday, uning nomini yo tutilib aytar, yoki chatoq o'qib, yana *takrorlar edi*. (A.Qahhor). Novikova uning

tezda javob bermaganiga chindan ham e'tibor qilmagan edi, keyin uning o'zgarib ketgan avzoyini ko'rib, taajjublandi va *savolini qaytardi* (A.Qahhor).

Ma'no tarqqiyoti natijasida ikki yoki undan ortiq so'z bir necha ma'nosida sinonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Bu hodisa ham sinonimiyaning rivojlanishi hisoblanadi.

Xullas, lug'aviy birliklar o'z-o'zidan sochilib yotgan hodisalar emas, ular o'zaro turli-tuman bog'lanishda bo'lib, shu asosda bir qancha guruhlarga, sistemalarga birlashadi.

**IKKINCHI BOB. LUG‘AVIY MA’NODOSH SO‘Z
(SINONIM)LARNING MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA
TASNIFLANISHI**

2.1. Leksik sinonimiya

Lug‘aviy birliklarni sistemalashtirishdan biri ularni ma’no munosabati hosil etib turishi asosida guruhlashdir. Aytilganidek, sinonimiya lug‘aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud. Shunga ko‘ra sinonimiya ikki xil:

1. Lug‘aviy sinonimiya-lug‘aviy birliklarning o‘zaro sinonim bo‘lishi *quyosh, kun; ko‘k, osmon; chopmoq, yugurmoq* kabi.

2. Grammatik sinonimiya-grammatik birliklarning o‘zaro sinonim bo‘lishi: -**yap, -yotir** (o‘qiyapman, o‘qiyotirman) kabi.

Lug‘aviy sinonimiya uch xil:

1. Leksik sinonimiya-so‘zlarning o‘zaro sinonim bo‘lishi: *mug‘ambir, ayyor, makkor*.

2. Frazeologik sinonimiya: iboralarning o‘zaro sinonim bo‘lishi: **ilonning yog‘ini yalagan, burganing ko‘zini ko‘rgan kabi**.

3. Leksik-frazeologik sinonimiya so‘z bilan iboraning o‘zaro sinonim bo‘lishi: *osongina, xamirdan qil sug‘urgandek*.

So‘zlarning ayni bir ma’noni anglatishi asosida guruhlanishiga leksik sinonimiya deyiladi. Masalan, *yalqov, dangasa* so‘zlari hozirgi o‘zbek tilida ayni bir ma’noni anglatadi (*ishyoqmas*).

So‘zlarning ayni bir ma’noni anglatishini ma’noda teng kelish deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, ushbu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma’no o‘zakidan tashqari o‘ziga xos ma’no qirrasiga ega bo‘lishi mumkin. Sinonimlar bir-biridan anglatgan ma’no qirrasiga, stilistik bo‘yog‘iga, nutqiy xoslanishiga ko‘ra (har uch jihatdan yoki shulardan birida) farq qiladi. Shu asosda leksik sinonimiyaga uch nuqtai nazardan yondashiladi. Bunday yondashishlar biri ikkichisini istisno qilmaydi, balki ayni bir hodisani turli jihatdan baholash bo‘ladi.

Sinonimlar o‘zaro ma’no qirrasini jihatidan aniqlanib tursa, ideografik sinonimlar deyiladi. Bularni ma’no sinonimlari deb ham yuritish mumkin. Masalan, *kerak, lozim* so‘zlari ayni bir ma’noni anglatadi, ma’no o‘zani teng, shunga ko‘ra bular sinonimlardir. Ammo bu so‘zlar o‘zaro leksik ma’no qirrasida farq qiladi: *o‘qish kerak, o‘qish lozim* bog‘lanishlarining keyingisida qat’iylik ma’nosi bo‘rtib turadi. Ma’nodagi bunday farq quyidagicha ta’kidlashda, ayniqsa, yaqqol seziladi. O‘z vaqtida *o‘qish kerakkina emas, balki lozim ham.*

Shuningdek, *yanglish, noto‘g‘ri, xato* sinonimlari ham ma’noda farq qiladi; *yanglish fikr, xato fikr, noto‘g‘ri fikr* bog‘lanishlarining har birida fikrning chin emasligi anglashiladi, ammo *xato fikrga* nisbatan *yanglish fikr* deyish bilan “aybnoma” yumshatiladi, *yanglish fikrga* nisbatan *xato fikr* deyish bilan “aybnoma” kuchaytiriladi.

Umuman, sinonimlardagi bunday farqlanish bir ma’no o‘zani doirasida bo‘lishi kerak. Aks holda, ma’no o‘zani o‘zgarsa, sinonimiya yo‘qoladi. Demak, sinonimiya uchun leksik ma’nolar orasidagi umuman yaqinlik etarli emas. Leksik ma’nolar o‘z qirrasiga ko‘ra farqlanib, ayni bir leksik ma’no o‘zanini anglatmagina, sinonimiya hosil bo‘ladi. Yuzaki qaraganda, *chaqqon, epchil* so‘zlari orasidagi ma’no munosabati bunday talabga javob beradigandek ko‘rinadi. Aslida bu so‘zlar boshqa-boshqa leksik ma’noni anglatadi: *chaqqonlik epchilikka emas, epchil kishi chaqqon bo‘lishi ham, chaqqon bo‘lmastligi* ham mumkin. *Chaqqon* so‘zi *oyoq-qo‘li yengil* iborasi anglatgani kabi ma’noni, *epchil* so‘zi esa *ishning ko‘zini biladigan* iborasi anglatgani kabi ma’noni bildiradi.

Sinonimlar o‘zaro stilistik buyoq jihatidan farqlansa, stilistik sinonimlar deyiladi. Har bir sinonimiya uyasi odatda; a) stilistik buyog‘i, neytral so‘zni (leksik ma’noni) va b) stilistik buyog‘i bo‘lmagan so‘zni (leksik ma’noni) o‘z ichiga oladi. Masalan, *yuz, bet, aft, bashara, chehra*, sinonimiya uyasida *yuz* so‘zi, *kulmoq, hiringlamoq, xaxolamoq* sinonimik qatorida *kulmoq* so‘zi neytral bo‘yoqlidir. Boshqalarida esa stilistik bo‘yoq bo‘rtib turadi.

Sinonimlarda stilistik bo‘yoq ikki xil bo‘ladi:

1) ijobiy ma’noli bo‘ladi: *chehra, jilmaymoq*

2) salbiy ma'noli bo'ladi: *bashara, tirjaymoq* so'zlaridagi kabi.

So'zlarni tanlab ishlatishda sinonimlarning faqat ma'no xususiyatlarigagina emas, balki stilistik bo'yog'iga ham e'tibor beriladi. Chunki stilistik bo'yog' shu so'z anglatayotgan hodisaga gapiruvchining munosabatini bildirib turadi.

Sinonimlar o'zaro nutqiy xoslanishi jihatidan farqlanib tursa, ***nutqiy sinonimlar*** (stil sinonimlari) deyiladi. Masalan, *yuz, bet, aft, bashara, chehra* so'zlari o'zlari anglatgan ma'nolari jihatidan deyarli bir xil, ammo nutqiy xoslanish jihatidan farqli. Bulardan *yuz* so'zining ishlatilishi nutq ko'rinishlari bo'yicha chegarlanmagan: *bet, aft, bashara* so'zlari esa asosan so'zlashuv nutqida, *chehra* so'zi esa badiiy nutqda ishlatiladi.

Nutqiy sinonimlar quyidagicha munosabatlarda voqe bo'ladi:

1) ***umumnutq*** so'zi (nutqning barcha ko'rinishlarida ishlatilaveriladigan so'z) bilan badiiy nutq so'zi orasidagi munosabatda: *nur-umumnutq so'zi, yog'du badiiy nutq so'zi, peshana-umumnutq so'zi, manglay-badiiy nutq so'zi, xat umumnutq so'zi, noma, maktub-badiiy nutq so'zi.*

2) umumnutq so'zi bilan so'zlashuv nutqi so'zi orasidagi munosabatda: *yana - umumnutq so'zi, tag'in-oddiy nutq so'zi; boshqa-umumnutq, bo'lak-so'zlashuv nutqi so'zi.*

3) ***umumnutq so'zi*** bilan *rasmiy nutq* so'zi orasidagi munosabatda: *tugamoq umumnutq so'zi, tamom bo'lmoq-rasmiy nutq so'zi, qatnashmoq-umumnutq so'zi, ishtirok etmoq-rasmiy nutq so'zi.*

4) *so'zlashuv nutqi* so'zi bilan *badiiy nutq* so'zi orasidagi munosabatda *aft-so'zlashuv nutqi so'zi, chehra- badiiy nutq so'zi; bo'lak-so'zlashuv nutqi so'zi, o'zga-badiiy nutq so'zi* kabi.

Demak, aytilganlardan ma'lum bo'ldiki, *sinonimiyaga uch jihatdan yondashildi*: 1) *ma'no qirradi* jihatidan, 2) *stilistik bo'yog'* jihatidan. 3) *nutqiy xoslanish* jihatidan. Shu tavsiflar asosida sinonimiya uyasining bosh so'zi belgilanadi. ***Sinonimiya qatoridagi bosh so'zga dominanta deyiladi.*** Dominantada odatda sinonimiya uyasidagi leksik mazmuni barcha sinonimlari uchun umumiy,

stilistik bo‘yog‘i eng neytral, umumnutqqa xos so‘z tanlanadi. Masalan, *shirin, mazali, lazzatli, laziz* sinonimiya uyasida *shirin* so‘zi dominantadir.

Dominantani belgilab olish sinonimiya lug‘atini tuzish ishida katta ahamiyatga ega. Chunki: a) sinonimiya qatori (sinonimiya uyasi) shu dominanta asosida lug‘atdan joy oladi; b) sinonimiya uyasi anglatgan ma’no shu dominanta asosida ta’riflanadi, so‘ngra shu uyadagi har bir sinonimning o‘ziga xos ma’no qirradi stilistik bo‘yog‘i va nutqiy xoslanishi bayon qilinadi.

2.2. Frazeologik sinonimiya

Shuni ham eslatib o‘tamizki, iboralar ham o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘ladi. Aniqrog‘i, iboralarning ayni bir ma’noni anglatish asosida guruhlanishga **frazeologik sinonimiya** deyiladi. Masalan, *og‘ziga qatiq ivitmoq, og‘ziga tolqon solmoq, og‘ziga suv olmoq, mum tishlamoq* kabi. Bu iboralar ayni bir lug‘aviy ma’noni-mutlaqo gapirmaslikni, suhbatda mutlaqo gapirmaslikni, qatnashmaslikni anglatadi. Misollar: *og‘zilaringga qatiq ivitdilaringmi, nega indamaysizlar* (Sh.Rashidov). Majlis boshlanguncha bir oz kulishib o‘tiraylik. *Og‘zilariga tolqon solib oldinglar* (P.Tursun). Ha, uka *og‘zingizga suv olib qoldingiz*. Bir gapirib, o‘n kularda, hammani *og‘ziga qaratardi*. Bugun *mum tishlab qoldi* (Oydin).

Frazeologik sinonimiya ham uch jihatdan baholanadi: a) *ma’no qirradi* jihatidan; b) *stilistik bo‘yoq* jihatidan; v) *nutqiy xoslanish* jihatidan. **Frazeologik sinonimlar ko‘pincha ma’no sinonimlari (ideografik sinonimlar) bo‘ladi.** Masalan, burni ko‘tarmoq-burni ko‘tarildi va dimog‘i shishadi iboralarining umumiy mazmun - *kibrlanmoq, gerdaymoq*, ammo bu umumiy ma’noning gavdalanishi turlicha. Bundan qat’iy nazar *burni ko‘tarmoq-burni ko‘tarildi* iborasiga nisbatan *dimog‘i shishdi* iborasida ma’no kuchliroq.

Frazeologik sinonimlarda stilistik bo‘yoq ham odatda bo‘rtib turadi. Aslida frazeologik birliklar xuddi shu maqsad bilan voqelikni nomlashda uni o‘tkir baholab borish uchun, ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqol ifodalash uchun yaratiladi. Masalan, *ikki oyog‘ini bir etikka suqmoq, oyog‘ini tirab turib olmoq*

sinonimlarining har ikkisida stilistik bo‘yoq juda kuchli ko‘z yummoq, *panja orasidan qaramoq*, sinonimlarida esa stilistik bo‘yoq ikkinchisida kuchliroq.

Frazeologik sinonimlar nutqiy xoslanish jihatidan u qadar rang-barang emas: asosan, so‘zlashuv nutqiga, qisman boshqa nutq ko‘rinishlariga xoslangan bo‘ladi. Masalan, yuqoridagi iboralar so‘zlashuv nutqiga xoslangan. *Ko‘zini yummoq*, *dunyodan o‘tmoq* iboralari adabiy nutqqa, *jon bermoq* iborasi esa so‘zlashuv nutqiga xoslangan.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlari bilan qorishtirmaslik kerak. Masalan, “*yangi, qo‘l tegmagan*” ma’nosini anglatuvchi *ohori to‘kilmagan*, *qirovi to‘kilmagan* iboralari o‘zaro sinonim. Chunki bulardan har biri boshqa-obrazga tayanadi, boshqa-boshqa so‘zlardan tarkib topgan.

Ammo *ahmoqqa To‘y tepa nima yo‘l*, *ahmoqqa Quva bir tosh* kabilar o‘zaro bir iboraning variantlaridir. Chunki har ikkisi bir obrazga suyanadi, tarkibidagi so‘zlarni almashtirish har gal mahalliy (dialektal) kolorit qo‘shadi.

Shuningdek, *boshida yong‘oq chaqmoq*, *boshida danak chaqmoq*, *boshida tosh chaqmoq* misollari ham bir iboraning variantlari bo‘lib, bir komponentning almashinuvi bilan iboraning ma’nosi kuchaya boradi.

2.3. Leksik-frazeologik sinonimiya

Ibora bilan so‘z orasidagi sinonimiyaga leksik-frazeologik sinonimiya deyiladi. Leksik-frazeologik sinonimiyada dominantlik rolini so‘z bajaradi. Har bir so‘z uchun frazeologik sinonim axtarish befoyda. Ammo ko‘pchilik iboralarning so‘z sinonimi bor. Shuni hisobga olib, sinonimiyaning bu turini *frazeologik-leksik sinonimiya* deb nomlash mumkin. Masalan, *yulduzni benarvon uradi* iborasi *olg‘ir* so‘zi bilan, *dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi* iborasi *beg‘am* so‘zi bilan sinonimiya munosabati hosil etadi.

Leksik-frazeologik sinonimiyada ibora o‘z ma’no qirrasiga ko‘ra, shuningdek, stilistik buyog‘iga ko‘ra o‘z sinonimi bo‘lgan so‘zdan keskin farqlanib turadi.

Nimanidir frazeologik birlik bilan anglatish odatda soʻz bilan anglatishga qaraganda obrazli, oʻtkir, taʼsirchan boʻladi.

Sinonimiya va polisemiya oʻzaro uzviy bogʻlangan. Chunki sinonimiya soʻzlarda leksik maʼnoga, iboralarda frazeologik maʼnoga asoslanuvchi hodisadir. Toʻgʻridan-toʻgʻri soʻz bilan soʻz, ibora bilan ibora, soʻz bilan ibora sinonimiyasi haqida gapirish uchun sinonimiya munosabati hosil etuvchi lugʻaviy birliklar bir maʼnoli (**monosemantik**) boʻlishi lozim.

Polisemantik soʻzlarda har bir leksik maʼno boshqa bir soʻz bilan (agar u monosemantik boʻlsa), leksik maʼno bilan (agar u soʻz polisemantik boʻlsa) sinonimiya munosabatiga kirishadi. Masalan, *bosh* soʻzi bir leksik maʼnosida *toʻngʻich* soʻzi bilan, ikkinchi leksik maʼnosida *asosiy* soʻzi bilan, uchinchi leksik maʼnosida *avval* soʻzi bilan sinonimiya munosabati hosil etadi.

Xuddi shunday holat iboralarda ham mavjud. Masalan, *koʻngli ozdi* iborasining bir maʼnosiga *hushidan ketmoq* iborasi, ikkinchi maʼnosiga *koʻngli aynidi* iborasining bir maʼnosi sinonim boʻladi.

Leksik maʼno turlari jihatidan qaraganda, sinonimiya munosabati:

1) *bosh* (toʻgʻri) maʼnolar orasida boʻladi. Bu asosiy holat: butunlay, tamomila soʻzlaridagi kabi.

2) *bosh* (toʻgʻri) maʼno bilan *yasama* (koʻchma) maʼno orasida boʻladi. Bu ham anchagina uchraydi: *toʻngʻich, bosh; puxta, pishiq* soʻzlaridagi kabi.

3) *yasama* (koʻchma) maʼnolar orasida boʻladi. Bu u qadar koʻp emas: *gapning magʻzi, gapning tuzi* birikmalaridagi *magʻiz, tuz* soʻzlari oʻzaro *yasama* maʼnolarida sinonimiya hosil etadi.

Leksik qoʻllash asosida, shuningdek, frazeologik qoʻllash asosida sinonimiya hosil boʻlmaydi. Chunki qoʻllash leksik maʼno deb qaralmaydi. Sinonimiya esa til birliklari orasidagi munosabatda tugʻiladi.

Leksik maʼno bilan leksik qoʻllash orasidagi sinonimik munosabat **kontekstual sinonimiya** deb nomlanishi mumkin. Kontekstual sinonimiya rang-barang koʻrinishlarga ega. Bunday sinonimik munosabat har gal nutqning oʻzida voqe boʻladi, shu konkret nutqdan tashqarida nutqqa chiqadi. Bunday sinonimiya,

masalan, olmosh bilan boshqa turkum soʻzi orasida, olmosh bilan butun bir birikma, gap, hatto abzats orasida; shaxs, predmet, mavhum tushuncha nomi bilan shuning tasviriy ekvivalenti orasida paydo boʻladi. Masalan, Abdulla Qahhorning *“Sinchalak”* povestiga taqriz yozganda har gal A.Qahhor deb qaytaraverish uslubni buzadi. Shu sababli kontekstual sinonimiyaan keng foydalaniladi: bir oʻrinda *adib* deyilsa, ikkinchi oʻrinda *yoʻzuvchi* deb, uchinchi oʻrinda asar *muallifi* yoki *muallif* deb ishlatiladi. Lugʻaviy birliklar sifatida adib, yoʻzuvchi, muallif soʻzlari oʻzaro sinonimlar emas, ammo maʼlum kontekst doirasida bu soʻzlar oʻzaro va A.Qahhor atoqli otiga kontekstual sinonim boʻladi.

Sinonimiya munosabatini belgilashda til taraqqiyotining muayyan bir bosqichi nazarda tutiladi va lugʻaviy birliklarning xuddi shu davrdagi oʻzaro maʼno munosabati asosida muhokama yuritiladi. Har xil ijtimoiy tuzumga taalluqli tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar ham oʻzaro sinonim deb qaralmaydi. Chunki bular maʼno jihatidan har qanday oʻxshash boʻlsa ham, ayni bir maʼnoni anglatmaydi. Masalan, sudya va qozi, politsiya, mirshab va militsioner soʻzlari alohida-alohida maʼnoni anglatuvchi soʻzlardir.

Sinonimiya tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini koʻrsatib turuvchi hodisalardan biridir. Sinonimiya vositasida nozik maʼno qirralarini anglatishsa, rang-barang uslubiy boʻyoqlarni ifodalashga erishiladi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning bir qirrasini boʻrtadi.

Aslida sinonimiya tugʻilishi uchun lugʻaviy birliklar (shuningdek, grammatik birliklar ham) oʻzaro maʼlum tenglikka, bir xillikkagina emas, balki ayrimlarga ham ega boʻlish lozim. Soʻz yoki iborani tanlab ishlatishda har gal ana shu ayrimliklarni nazarda tutishga toʻgʻri keladi. Muayyan fikr yoki munosabatni bildirishda sinonimiya qatoridan yagona, eng muvofiq soʻz yoki iborani tanlab olish talab etiladi.

Sinonimlardan yana nutqni ravon qilib tuzishda, qaytariqlardan qochishda, shuningdek, tovush noqulayligini bartaraf qilishda unumli foydalaniladi. Bulardan tashqari, sinonimlar asosida juft soʻz tuziladi. Bunday juft soʻzlarda maʼno kuchayadi, umumlashadi: or-nomus, baxt-saodat kabi.

UCHINCHI BOB. MA'NODOSH SO'Z(SINONIM)LARNING SO'Z TURKUMLARI JIHATDAN TAVSIFI

3.1. Ot so'z turkumiga oid sinonimlarning leksik-semantik va funksional- uslubiy innovatsion tavsifi

Leksik sinonimlar so'z turkumi jihatidan turlicha bo'ladi. Ya'ni bunday sinonimlar ot, sifat, ravish, fe'l kabi so'z turkumlarida uchraydi.

Bularning ichida so'z turkumi jihatidan eng ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri ot turkumiga oid sinonimlar, ya'ni ot sinonimlardir.

Demak, leksik sinonimlarning sinonimlar deb nomlanuvchi turida ot turkumiga oid ma'no jihatidan turlicha bo'lgan til birliklari-so'zlar o'zaro sinonimik munosabatga kirishib aloqa aralashuv jaroayoni uchun xizmat qiladi.

Quyida badiiy asarlar asosida nutqimizda faol ishlatiluvchi ot sinonimlarni keltirib tahlil qilamiz.

1. *Avliyo, valiy, karomatchi*. Bu ot sinonimlar nutqda "*bashorat, karomat qila oladigan, oldindan aytib beradigan, mo'jizalar ko'rsata oladigan odam*" izohini beradi. Qiyoslang: U javob berdi: g'oyibdan xabar beruvchilar ikki turli bo'ladilar: biri *vali*, ikkinchisi *kohin* (S,Ayniy). Men shunday *avliyomanki*, agar tosh yoki daraxtni chaqirsam, oldimga darrov keladi. U mashhur *karomatchilardan*.

Yuqorida berilgan gaplardagi *avliyo, vali* so'zlarida ilohiylik belgisi etakchi, asosiy. *Vali* so'zi o'sha ma'noda kam qo'llanadi. *Karomatchi* so'zi esa ko'proq so'zlashuv nutqiga xos.

2. *Avlod, bo'g'in*. Qayd etilgan leksik sinonimlar fikr almashishi jarayonida "*bir davr kishilarining nasli*" ifodasini beradi. Masalan, *Hukumatimiz yosh avlodga alohida g'amxo'rlik ko'rsatmoqda. Yosh bo'g'inni mehnatga, halollikka o'rgatishimiz lozim*.

Avlod so'zi nisbatan ko'p qo'llaniladi, kitobiy uslubga xos. *Bo'g'in* so'zi, asosan, so'z birikmasi tarkibida keladi, kam qo'llanadi, eskirgan.

3. *Avtor, muallif*. Bunday sinonim til birliklari-so'zlar kommunikatsiya jarayonida quyidagi ma'noda ishlatiladi. "*Badiiy, ilmiy, adabiy asar yaratgan,*

nimanidir ixtiro qilgan shaxs”. Masalan, *maktub avtor* o‘zining ... daraksiz ketganligi sabablarini aytib (I.Rahim). U O‘zbekiston *yo‘zuvchilar* uyushmasining a‘zosi, qator asarlarning muallifi (gazeta). *Muallif* so‘zi nisbatan faol qo‘llanadi, kitobiy. *Avtor*-baynalmilal, kam ishlatiladi, ko‘proq so‘zlashuv nutqiga xos.

4. *Agent, ayg‘oqchi, josus, shpion*. Bunday sinonimik munosabatdagi til birliklari “*biror davlat razvedkasining maxfiy xodimi*” izohiga ega bo‘lib hisoblanadi. Masalan, ... g‘oyat ehtiyotkorlik bilan ishlar, chunki *agentlar* va ... so‘z *ovlovchilar* qishloqlarda oz emas (Oybek). Sekinroq gapir, o‘g‘lim, xon *ayg‘oqchilari* daydib yurishibdi (J.Sharipov).

5. *Adolat, odillik*. Ushbu sinonim til birliklari nutqda quyidagi ma‘no uchun xizmat qiladi. “Xolis va haqqoniy xatti-harakat”. Masalan, Bashorat tarixi zulm haqsizlik, talonchilik davrini paymol etib, erk va *adolatning nurli* asriga g‘olibona yurayotir. (Oybek).

6. *Ayol, xotin, xotin-qiz, xotin- xalaj*. Ushbu sinonimik munosabatga kirishgan leksik birlik munosabatda faol qo‘llanib, quyidagi ifodani beradi. Ya‘ni “*Ayol jinsiga oid, erkak jinsiga zid inson*”. Masalan, Ayollar ko‘prik boshida chapak chalib, tizzalarini urib chinqirishdi. (Oybek). Mahkamga bujuda yoqib tushdi:-to‘g‘rida, erkaklar bilan *xotin-qizlarning* haqqi-huquqi teng bo‘lgandan keyin, birining ikkinchisi oldida ma‘lumoti ham teng bo‘lishi kerak. (P. Qodirov).

7. *Ajin, tirish (burish (iq))*. Bunday sinonimik munosabatdagi til birliklari “yuz va peshanada bo‘luvchi batiq yo‘l-yo‘l chiziqlar (izlar)” izohida qo‘llanadi. Qiyoslang: Yuzingni qoplagan *ajinmas*, to‘g‘ri, yillardan-yillarga o‘tgan yo‘llardir. (Shuhrat).

Qo‘rqqanidanmi yo o‘yga tolganidanmi To‘laning yuzi jiddiylashdi, peshonasida tirishlar paydo bo‘ldi (M.Ismoilii). Shokir ota eti suyakka yopishgan, chuvak yuz iva peshanosi chuqur *chiziqlar, burishiqlar* bilan quyuq qoplangan kamsaqol keksa edi. (Oybek).

8. *Alanga, yolqin*. Bu leksik sinonimlar fikr almashish-kommunikatsiya jarayonida quyidagi ma‘no anglatadi; “o‘t (olov)ning havoga ko‘tariluvchi va

issiqlik, yorug'lik tarqatuvchi qismi". Masalan, *sham alangasi* har tomondan esib turgan shabadada tebranar edi. (A. Qahhor). Shox-o'tinning o'choqni to'ldirib, lovullayotgan *yolqini* qaraygan ko'chaga shu'la sochmoqda (P.Tursun).

Alanga so'zi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, ko'p qo'llanadi, emotsional bo'yog'i jihatidan betaraf. *Yolqin* so'zi esa badiiy asar tiliga oid bo'lib, kam qo'llanadi, ya'ni kitobiy. Emotsional bo'yog'i jihatidan ijobiy xususiyatga ega, ma'no jihatidan ham ishlatiladi.

9. *Ashulachi, xonanda, qo'shiqchi*. *Ashulachi, xonanda, qo'shiqchi* sinonimik munosabatdagi til birliklari so'zlar nutqimizda faol qo'llanib, "*ashula aytish kasbi bilan shug'ullanuvchi, ashula aytuvchi shaxs*" ma'nosini beradi. Masalan, Tuzukmi, bek aka,-yaxshi *ashulachi* ekansiz (A.Qodiriy).

Xonanda adabiy tilga xos bo'lib, oddiy so'zlashuvda qo'llanmaydi. Asosan, yakka ijrochi haqida gap borganda ishlatiladi. *Qo'shiqchi* ko'proq kitobiy, *ashulachi* so'zlashuv nutqiga xos.

10. *Bahs, tortishuv, munozara, mubohasa*. Qayd etilgan sinonimik munosabatdagi til birliklari-leksik sinonimlar "*biror narsa, holatni yoqlash, ma'qullash maqsadida o'tkaziladigan muhokama ma'nosini beradi*". Qiyoslan: Shu ikki fikr atrofida *munozara* juda qizib ketdi.(A.Qahhor). Uch kishining *tortishuvidan* birin-ketin butun shiypon uyg'ondi (I.Rahim). Paxta xususida ularning *bahsi*, so'zlashar bu yilgi to'kin hosildan (X.Saloh).

Bahs, tortishuv so'zlarida belgi darajasi kuchliroq bo'lib, bunda *fikr-mulohaza* aytishuvchilar ikki yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. *Munozara* ilmiy bo'yoqqa ega bo'lib, bunda fikr aytishuvchilar ko'p bo'ladi. *Mubohasa* eskirgan bo'lib, juda kam qo'llanadi. Har ikki so'z xam kitobiy.

11. *Bezak, ziynat, hasham*. Bu leksik sinonimlar nutqda-o'zaro aloqa-aralashuv jarayonida "*bezatish, yasatish uchun ishlatiladigan buyum-narsalar*" ma'nosini beradi. Masalan, *bezak* uchun u er-bu erga qo'yilgan katta-kichik chiroyli xitoy vazalarni latta bilan yaxshilab artdi. (Oybek). *Ziynat* so'zi *bezak* so'ziga nisbatan kam qo'llanadi. *Hasham* so'zida dabdabalilik, kuchaytirish ottenkasi bor.

12. *Bosh, kalla.*_Qayd etilgan bunday sinonimik munosabatdagi til birliklari aloqa-aralashuv jarayonida quyidagi ma'noni ifoda etadi. Ya'ni "*kishining tanasidan, bo'ynidan yuqori qismi, hayvon, qushlarning tanasidan oldingi yoki yuqori qismi*". Masalan, tobut ketidan borayotgan kishidek, *boshini egib, Sunnatning orqasidan ketdi.* (Shuharat). Bir og'iz gap bor-dedi, Soli sovuq *kallasini bo'yin tomiri uzilib ketgudek egib* (M.Ismoilij).

Bosh, kalla so'zlari so'zlashuv nutqiga xos, ko'p qo'llanadi. *Bosh* so'zi emotsional bo'yog'i jihatidan neytral, betaraf, unda salbiy bo'yoq ham, ijobiy bo'yoq ham yo'q. *Kalla* so'zi esa, salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, insonga nisbatan qo'llanadi.

13. *Vatan, mamlakat, el, yurt, diyor, mulk.*_ Qayd etilgan sinonimik munosabatdagi til birliklari- leksik sinonimlar nutq jarayonida quyidagi ma'nolarni ifoda etadi. "*Kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning fuqarosi bo'lgan joy, hudud*". Masalan, kishining qadri amali va unvoni bilan emas, *Vataniga, xalqiga* qilgan xizmati bilan o'lchanadi (Shuhrat). Yer tagida qon tomiridek ming tomonga taralgan quvur. *Mamlakatga* bergan neftidan Polvontoshda sevinch va g'urur (Yo. Mirzo). Nihoyat Istanbul ko'ziga tor bo'lib, *yurt*ni qo'msay boshladi. (M.Ismoilij).

Vatan so'zida fuqaro, xalq, tushunchasi u mansub bo'lgan joy tushunchasi bilan birlashgan. *Mamlakat* ko'proq adabiy nutqqa xos bo'lib, unda yashash joyi ottenkasi juda kuchsiz, hatto yo'k darajada bo'ladi. Bu so'z umuman biror xalq yoki xalqlar uchun umumiy (birlashtiruvchi) territoriyani bildiradi. *Yurt* ko'proq oddiy nutqqa xos va u ma'lum joy (territoriya) bilan shu joyga mansub xalqni ham qo'shib ifodalay oladi. *El* nisbatan eskirgan, ko'proq poetik asarlarda uchraydi. *Diyor* poetik uslubga xos. Bu so'z umuman ma'lum bir joy ma'nosida (ma'lum bir xalqqa mansublik tushunchasisiz) ham qo'llanadi.

14. *Vaqt, payt, zamon, fursat, mahal, chog', kez, kezak, mavrid, palla, muddat, dam, on, lahza.* bunday leksik sinonimlar fikr almashish jarayonida quyidagi sinonimik tushunchani anglatadi. Ya'ni "*yuz beradigan*", amalga oshadigan voqea, hodisa va narsalarning asrlar, ishlar, soatlar, minutlar va hokazo.

Vaqt soʻzi qolganlaridan keng tushunchaga ega. *Payt, zamon, mahal, chogʻ, kez, kezak, palla, muddat, dam, on, lahza* soʻzlari maʼlum chegaralangan vaqtni bildiradi. Shuning uchun bu soʻzlar ifodalanayotgan vaqt chegarasini aniqlab koʻrsatuvchi soʻzlar bilan birga qoʻllanadi: *yoz payti, bir zamon, har mahal, shu on, shu chogʻ, oʻsha kezda, har lahza, kuz pallasi* kabi. *Muddat* oʻlchangan, belgilangan vaqtni bildiradi. *Zamon* biror voqea-hodisa bilan xarakterli boʻlgan *vaqt oraligʻini* ham beradi. *Lahza, on* vaqtning juda qisqa darajasini bildiradi va koʻproq kitobiy uslubga xos. Fursat koʻpincha maʼlum ish uchun lozim boʻlgan, shu ishga belgilangan vaqt maʼnosini bildiradi.

15. *Dunyo, jahon, olam, koinot*. Bunday sinonimik munosabatdagi til birliklari nutqda keng qoʻllanib, “*butun borliq yoki uning biror qismi*” maʼnosini beradi. Masalan: Agar birov menga “qolgan umringni sayohat qilib oʻtkazasanmi yo shu supada oʻtirib oʻtkazasanmi?”-desa, shu supani bera qol, der edim. (A.Qahhor).

Dunyo, jahon soʻzlari, asosan, borliqning er bilan bogʻliq qismini bildiradi. *Olam, koinot* soʻzlari kitobiy boʻlib, butun borliqni bildiradi.

16. *Dushmanlik, adovat*. Ushbu sinonimik til birliklarining oʻzaro maʼnodoshlik munosabatiga kirishi uchun quyidagi ifoda asos boʻlib hisoblanadi. Yaʼni “*koʻraolmaslik munosabati, yomonlikka asoslangan munosabat*”.

Fikr almashish jarayonida *dushmanlik* soʻzi koʻp uchraydi. Yaʼni u koʻproq soʻzlashuv nutqiga xos, belgi darajasi kuchliroq. *Adovat* soʻzi esa kitobiy.

17. *Yozuvchi, adib*. Bunday sinonimlar “*badiiy asar yozish bilan shugʻullanuvchi shaxs*” izohini beradi. Masalan, koʻpchilik ishchilar, yosh *shoirilar, yozuvchilar* progressiv intelligentlar edi (Oybek). Abdulla Qahhor xalqimizning sevimli *adiblaridan*.

Yozuvchi soʻzlashuv nutqiga xos boʻlib, koʻp qoʻllanadi. *Adib* soʻzi esa kitobiy boʻlib, badiiy asarlarda qoʻllanadi.

18. *Janjal, toʻpolon, gʻalva, mojaro, gʻavgʻo, mashmasha*. Tilimiz lugʻat tarkibida mavjud boʻlgan bunday sinonim birliklar nutqda quyidagi maʼnoga ega boʻladi. *Mojaro, gʻavgʻo* soʻzlari kam qoʻllanadi. *Mashmasha* soʻzida belgi darajasi kuchsizroq.

19. Sel, jala. Ushbu sinonimik munosabatdagi til birliklari ot sinonimlari “*juda qattiq va tez yomg‘ir*” ma’nosini anglatadi. Masalan: *Yomg‘ir jalaga aylandi*. Qattiq mamaqaldiroqdan so‘ng *sel* keldi.

Bu sinonimik birliklardan *sel* so‘zida belgi darajasi kuchliroq. *jala* so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lsa, *sel* kitobiy hisoblanadi.

20. Jahl, achchiq, g‘azab, qahr, zarda. Bunday sinonimik birliklar nutqda-fikr ifodalash jarayonida “*nojo‘ya, (nomaqbul) xatti harakatga yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada qo‘zg‘algan his-tuyg‘u va shunday his-tuyg‘uning ifodasi*”. Qiyoslang: Boy va boyvachchalarning yuzlari burishsa ham, ular janjalni ulg‘aytirmaslik uchun ustalik bilan muomala qilishga intiladilar. (Oybek). Nabiqul Qodirni ko‘rib, *g‘azabidan* tushdi. (A. Qahhor). Pirnazar polvon avvalgi *shashtidan*, avvalgi *qahridan* tushgan (R.Rahmon). Yayov butun dalani aylanib chiqdi. Ilgarigiday Oynaxonga nazarda, na kinoya, *na achchiq* qilardi (X.Seyitov).

G‘azab, qahr so‘zlarida belgi darajasi kuchli. *Zarda* nojo‘ya, yoqmaydigan kuchli. *Zarda nojo‘ya*, yoqmaydigan ish, xatti-harakatga javob tarzida ifoda etilgan *jahl*ni bildiradi. *Jahl* so‘zlashuv nutqiga xos. *Achchiq, zarda* kitobiy.

21. Zahar, og‘u. Ushbu sinonimik munosabatdagi birliklar-til belgilari nutqda-kommunikatsiya jarayonida “*organizmni zaharlovchi modda*” ifodasini beradi. Masalan: Sevuvchilar vasl oqshomida baxt sharobini ichishsa, bular baxtsizlik *og‘usini* ichmoqda edilar (M.Ismoilij). *Zahar* so‘zi faol bo‘lib, so‘zlashuv nutqiga xos. *Og‘u* so‘zi kam qo‘llanadi, asosan, kitobiy.

22. Ish, yumish. *Ish* va *yumish* so‘zlari sinonimik munosabatdagi til birliklari bo‘lib, fikr ifodalash jarayonida “*biror maqsadda qilinadigan faoliyat, harakat*” ma’nosini beradi.

Ish keng tushunchaga ega bo‘lib, kishining mashg‘uloti va uning natijasi ma’nosini beradi. *Yumish*, asosan, jonli so‘zlashuvda va katta yoshdagi kishilar nutqida qo‘llanadi, shunda ham, asosan, *shaxsiy ish* va *uy ishlariga* nisbatan qo‘llanadi.

23. Kulgi, xanda. Bunday sinonimik munosabatdagi til birliklari nutqda “*kishi o‘z xursandligini, zavqini ifodalashda chiqadigan uzun-qisqa, baland-past ovoz*”.

Masalan: Bu soʻzdan soʻng uy ichini kuchli bir *kulgi tovushi* qopladi. (A. Qodiriy). *Kulgi* soʻzlashuv nutqiga xos, nutqda faol qoʻllanadi. *Xanda* koʻproq poetik uslubga xos boʻlib, nisbatan kam ishlatiladi.

24. *Maosh, oylik, moyana*. Sinonimik munosabatdagi bu til birliklari - soʻzlar nutqda qoʻllanish jarayonida quyidagi maʼnoni beradi: “*Idora, tashkilot tomonidan har oyda berib turiladigan pul, ish haqi*”. Masalan. Oqsoy kasalxonasida aytgani aytgan, degani degan. Izzat-obroʻsi ham *maoshi* ham oshdi. (S. Anorboev). Odamlarning miyasini zaharlovchi shu safsataboz Abdulahaddan *moyana* olib turar ekan (M.Muhammadjonov).

Oylik soʻzi ish haqining bir oyga xos qismini ham, shuningdek, umuman ish haqi maʼnosini ham bildiradi. *Maosh, moyana* soʻzlari umuman ish haqi maʼnosini bildiradi. Bu soʻzlar asosan, soʻzlashuv nutqiga xos.

25. *Mehmon, qoʻnoq*. Bunday sinonim birliklar yoʻq kelgan shaxs “*oʻzganing uyi (joyi)da vaqtincha boʻluvchi shaxs*” Masalan: Ziyofat samimiyat bilan chaqirilganlikdan dasturxon *qadrli mehmonga* maxsus turlangan edi. (Abdulla Qodiriy).

Mehmon soʻzlashuv nutqiga xos, koʻp qoʻllanadi. *Qoʻnoq* kitobiy, juda kam ishlatiladi.

26. *Nom, ot, ism*. Ushbu sinonimik munosabatdagi til birliklari “*shaxs yoki predmetlarga qoʻyiladigan atash maʼnosini* anglatadi. Masalan: Dasturxon ustida bir qishloqning bolasiga *nom* topolmay, koʻp maslahatlashdilar, oxiri”: niyati xolis, murod-maqсадli Elmurod boʻlsin! Elmurod degan qarorga keldilar (P.Tursun).

27. *Ovqat, taom, oziq, tomoq, xoʻrak, emish, neʼmat*. Bunday sinonimik munosabatdagi ot birliklar fikr almashish jarayonida quyidagi maʼnoni anglatadi: “*odam, hayvon va umuman, jonivorlar isteʼmol qiladigan quyuq yoki suyuq egulik*”. Masalan: Anchadan keyin onasi kosalarga *ovqat* suzdi.(M.Ismoilij). Mehmonlar lazzatli *taomlarni* xoʻp yeyishdi, ichishdi. (P.Tursun). Bir kunlik yoʻlga chiqsang, bir haftalik *oziq* ol. Tushlik *osh vaqti* boʻldimi, nima *tomoq* qilsamikan (A.Qodiriy).

Ovqat odam yoki hayvonlar qabul qiladigan egulik narsani bildiradi.

28. Osmon, ko'k, samo, falak, gardun. Ushbu til birliklari-sinonimik munosabatdagi otlar “*yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turuvchi havo qatlami*” ma'nosini beradi. Masalan: Tong otdi. Tepaliklarning qor bosgan oppoq cho'qqisi, o'rmondagi daraxtlarning uchi qizardi, uzoq jilg'adan ko'tarilib, *osmonga* taralgan qop-qora tutunning bir chekkasi jigarrang tusga kirdi. (A.Qahhor).

Osmon so'zlashuv tiliga xos bo'lib, keng qo'llanadi. *Ko'k, falak* so'zlari so'zlashuv nutqida juda kam uchraydi. *Samo, gardun* kitobiy, poetik uslubga xos. *Gardun* juda kam qo'llanadi, asosan, she'riyatga-poetik uslubga xos.

29. *Savol, so'roq.* Bu sinonimlar fikr almashish jarayonida “*javob, tushuntirish talab etuvchi murojaat*”. Masalan, Otabek ...ustaning Toshkent to'g'rilarida bergan *savollariga* shunday, ha, yo'q, albatta kabi qisqa javoblar bilan qarshi turar edi. (A.Qodiriy).

Jonli so'zlashuv nutqida, asosan, *so'roq* so'zi qo'llanadi. O'qish-o'qitishda, kitobiy tilda *savol* so'zi ko'p ishlatiladi.

30. *Xalq, xaloyiq, el, ulus, mardum.* Qayd etilgan sinonimik munosabatdagi til birliklari nutqda kommunikatsiya jarayonida “*biror davlat, mamlakat, yurtda yashovchi (shu davlat, mamlakat, yurtga mansub) aholi*” izohini beradi. Masalan: Kamar boylab belingga, xizmat qilgin *elingga*.(P.Tursun). Menga nega gapirasan, *xaloyiqqa* gapir (A.Qahhor). O'zbek deb atalgan ozod *ulusning* otaxon shoiri qadrli ustod. (G'.G'ulom). ...yana biz Toshkent mardumlari bu to'g'rida haqiqat tomonida sobit qadam bo'lmoqqa til berishurmiz. (A.Qodiriy).

El so'zi xalq so'ziga nisbatan juda kam qo'llanadi. *Ulus, mardum* kitobiy, eskirgan. *Xaloyiq*, asosan, *mavzesi* bir joyning odamlari, ma'lum joyda to'plangan odamlar ma'nosida qo'llanadi.

3.2. F e' l so'z turkumiga oid sinonimlarning leksik-semantik va funksional-uslubiy innovatsion tavsifi

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, sinonimlarning qator ko'rinishlari ichida leksik sinonimlar sinonimiyaning eng faol qo'llanadigan turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Aniqrog'i leksik sinonimlar aslida so'z sinonimlaridir. Leksik sinonimlardan kommunikatsiya jarayonida eng ko'p qo'llanadigan faol turlaridan biri fe'l turkumiga oid fe'l sinonimlardir.

Biz o'zbek tilidagi badiiy asarlar asosida jonli nutqda-fikr almashish jarayonida faol ishlatiluvchi sinonimlar – fe'l sinonimlariga to'xtalamiz, tahlil qilamiz. Taxlil jarayonida fe'l sinonimlarining umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlaymiz va misollar bilan isbotlaymiz.

1. So'nmoq, o'chmoq. Ushbu sinonim birliklar nutqda “*yorug'lik berish, yonish, nur tarqatishi yo'qolmoq (to'xtamoq)*” izohiga ko'ra qo'llanadi. Ular keltirilgan izohga ko'ra o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi. Shuni aytib o'tish kerakki, ayni vaqtda yuqorida qayd etilgan sinonim biliklar nozik ma'no farqiga ham egaligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang:

So'nmoq - yorug'lik berish, yonish, nur tarqatish asta yo'qolmoq, to'xtamoq. Masalan: o'ng xonalarda shamlar miltiraydi, *so'nadi* (O.Muxtorov). Faqat gohi-gohida mushak *uchib so'nadi*. (E.Vohidov).

O'chmoq - yorug'lik berish, yonish, nur tarqatish tezda yo'qolmoq, to'xtamoq. Chiroq *o'chdi*. (Toshkent oqshomi). O'tga tuproq *tashlasa o'chadi*.

Yuqoridagi tahlildan ma'lum bo'ldiki, *so'nmoq* fe'li ma'nosida muayyan jarayonning (yorug'lik berish, yonish ... kabilarning) yo'qolishi yoki to'xtashi ko'pincha asta amalga oshishi va tasviriylilik ifodalanadi.

2. *Ivimoq, bo'kmoq*. Bunday fe'l sinonimlar fikr almashishi jarayonida “suvni singdirish, suvli holatga o'tish” ma'nosini beradi. Demak, keltirilgan til birliklar fe'l leksemalar qayd etilgan izohga ko'ra o'zaro sinonimik aloqani hosil qiladi. Ma'lumki, sinonimik munosabatdagi til birliklari nozik ma'no farqiga ham ega bo'lib, shunga ko'ra ular o'zaro farqlanadi. Qiyoslang: *Ivimoq*-suvni to'la

singdirgan holatga o'tmoq. Masalan: Ust-boshi allaqachon ivigan bola namdan, sovuqdan bir oz titrardi. (O.Muxtorov). Safarov papiros naychasining *ivigan* joyini tishi bilan uzib, puflab tashladi. (A.Qahhor). Keyin *ivitgan* non ushoqlarini cho'qidi. (Shuhrat).

3. *Qovjiramoq, qurimoq, qaqramoq*. Berilgan sinonim so'zlar nutqda "*Suvsiz, suvi yo'q holatga o'tmoq*" izohini beradi. Ayni vaqtda ular muayyan xususiyatlariga qo'shimcha ma'no nozikliklariga ko'ra, albatta, o'zaro farqlanadi.

Qayd etilgan sinonimlardan *qurimoq* so'ziga nisbatan *qovjiramoq* so'zida ta'sirchanlik, belgi darajasi ortiq. *Qaqramoq* so'ziga nisbatan ortiq. Demak, qo'shimcha belgi darajasining ortiqligiga ko'ra *qaqramoq* so'zi etakchilik qiladi.

4. *Muzlamoq, yaxlamoq*. Bu sinonimik munosabatdagi til birliklari fe'l sinonimlar "*muzli, muzga aylangan holatga o'tmoq*" izohiga ega. Ya'ni ular qayd etilgan ifodaga ko'ra sinonimik munosabat hosil qiladi. Ayni vaqtda ular nozik ma'no qirrasiga ko'ra farqlanadi. Qiyoslang: *Muzlamoq* - muzga aylangan holatga o'tmoq. masalan: Qirov tushib dalalardagi o't-o'lanlarning tagini *muzlatgan*. (N.Normatov). Sovuqning ta'siridan *suv muzlabdi*. (Toshkent oqshomi).

Yaxlamoq - butunlay muzlagan, qattiq sovuqqotgan holatga o'tmoq. masalan: *Suv yaxlabdi*. Izg'irin yalaydi *yaxlagan* betin (T.To'la).

5. *Kamaymoq, ozaymoq, siyraklashmoq, sergalmoq*. Bunda sinonimik munosabatga kirishgan fe'l leksemalari shaxs yoki predmetning miqdori bilan bog'liq jarayonni ifoda etadi. Ular miqdor belgisiga ko'ra sinonimik munosabatni hosil qiladi. Masalan: Kundan-kun bozor kasodlashib, xaridor *ozaydi*. (A.Qahhor). Daryo suvi *kamaygan*, qirg'oqlari ochilib qolgan edi. (M.Osim). Nihoyat, bulutlar *siyraklashdi*, fontan atrofi bo'shab qoldi. (S.Ahmad).

6. *Qizimoq, isimoq, ilitmoq*. Bu sinonim birliklar harakat belgisiga ko'ra o'zaro mantiqiy bog'lanadi.

Qizimoq - harorati juda ko'tarilgan, qizigan holatga o'tmoq. Masalan: Kundan-kunga havo *qizidi* (Oybek). *Isimoq* - harorati ko'tarilgan, isigan holatga o'tmoq. Masalan: Bugun ertalabdan *kun ham isidi* (H.G'ulom). Bahor kelishi bilan *kun isiydi*. (Sh.Shomaqsudov).

Qizimoq soʻzida belgi darajasi kuchli boʻlib, u, asosan, ogʻzaki nutqqa xos. *Ilimoq* - harakati biroz koʻtarilgan, iligan holatga oʻtmoq.

7. *Saqlamoq, asramoq*. Bu sinonimik munosabatdagi til birliklar ehtiyot qilish ifodasiga koʻra oʻzaro bogʻlanadi. *Saqlamoq* - asragan, ehtiyot qilgan holatda boʻlmoq. Masalan: Xatlarni Dilshod hech kimga koʻrsatmas, idorasidagi stol gʻaladonida *saqlar*. (U Nazarov). Boy ham otini ehtiyot qilib *saqlaydi* (Gʻ.Jahongirov).

Saqlamoq, asramoq soʻzlari koʻproq kitobiy boʻlib, *asramoq* soʻzida ehtiyot qilish belgisi-darajasi bir oz ortiq.

8. *Osonlashmoq, yengillashmoq*. Qayd etilgan til birliklari-feʼl leksemalar qulay maʼnosiga koʻra oʻzaro sinonimik munosabatga kirishadi. *Osonlashmoq* - oson holatga oʻtmoq. Masalan: Boyvachcha sigirning sutini ikkita bidonga yarim-yarim solib bergani uchun Munisaxonga koʻtarish ancha *osonlashgan edi*. (S.Yunusov). Saidiy magʻlubiyatga uchrasa, Abbosxonning ishi qancha *osonlashar edi*. (A.Qahhor).

Osonlashmoq soʻzi, asosan adabiy tilga xos.

Yengillashmoq - yengil holatga oʻtmoq. Masalan: Yuragi qandaydir dalda sezib, nafasi *yengillashdi*. (A.Muxtor).

9. *Koʻnikmoq, oʻrganmoq, odatlanmoq*. Bunday sinonimik munosabatdagi til birliklari muayyan hodisaga, jarayonga, narsaga nisbatan oʻrganish, odatlanish hosil qilmoq maʼnosiga koʻra oʻzaro bogʻlanadi. Masalan: Umri goʻdaklik chogʻidan ogʻir mehnatga, achchiq quruq gaplarga *koʻnikib*, chiniqib oʻsdi ... (A.Qahhor). Oqqushcha avvaliga uyga, odamlarga *koʻnikdi*. (Shuhrat).

Koʻnikmoq tasviriy soʻzi, asosan, badiiy nutqqa xos boʻlib, “*majburiy*” belgisiga egadir.

Oʻrganmoq - beixtiyor moslashish holatida boʻlmoq. Masalan: Goʻdaklik chogʻimda senga *oʻrgandim*. (H.Olimjon). *Oʻrganmoq*, asosan, soʻzlashuv nutqqa xos boʻlib, keng qoʻllanadi, beixtiyor belgisiga ega.

Odatlanmoq - ixtiyoriy oʻrganish holatida boʻlmoq. Masalan: Shu boisdan koʻchmanchi qirgʻizlar idish-tovoqni oʻz turmush tarziga mos turli materiallardan

yasashga *odatlanishgan*. U podachining uchinchi kenja qizi bo'lib, dono, hushyor, mehnatga *odatlangan*. (Sohibqiron).

Odatlanmoq so'zi, asosan, adabiy til yozma nutqda keng qo'llanadi, *ixtiyoriy belgisiga* ko'ra boshqa holat fe'llaridan farq qiladi.

10. *Gavdalanmoq, jonlanmoq*. Qayd etilgan sinonimik munosabatdagi til birliklari muayyon hodisa, jarayon, predmet kabilarning xayolda (tasavvurda) tiklangan, xayolan kechgan holda bo'lishi izohiga ko'ra o'zaro mantiqiy munosabatga kirishadi.

Gavdalanmoq - xayolan tiklangan holatda bo'lmoq. masalan: Uning ko'z oldida Arslon *gavdalandi*. (Mirmuhsin).

Jonlanmoq - xayolan kechgan holatda bo'lmoq. Masalan: Xayolida to'rt yil burun bo'lgan *voqea jonlandi*. (H.G'ulom).

Yuqorida sinonimlar tahlilidan shunday xulosa qilish mumkin: *gavdalanmoq* ma'nosida predmetning tasavvurda nisbatan to'liq, ammo nisbatan turg'un holda namoyon bo'lishi ifodalanadi. *jonlanmoq* so'zi ma'nosida esa predmetning tasavvurda qisman, uning ayrim muhim tomonlari harakatchan (dinamik) shaklda qayta paydo bo'lishi bilan farqlanadi. Shuningdek, *jonlanmoq* tasviriylikni, ta'sirchanlikni ortiq ifodalashiga ko'ra ham *gavdalanmoq* so'zidan farq qiladi. *Jonlanmoq* so'zi ma'nosining izohi ko'chma ma'no sifatida baholanadi.

11. *Uxlamoq, mudramoq*. Qayd etilgan fe'l leksemalar inson va jonivorlarning harakatsiz, ya'ni uyqu, mudrash holatida bo'lishi ifodasiga ko'ra o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi. *Uxlamoq* so'zida belgi darajasi *mudramoq* so'ziga nisbatan ortiq, aniqrog'i, *uxlamoq* to'liq uyqu bo'lsa, *mudramoq* yarim uyqu hisoblanadi. Masalan: Qizcha onasi quchog'ida *mudrab-mudrab uxlab* qoldi. Burchakda esa katta qari kuchuk *mudrar edi*.

12. *Qarimoq, keksaymoq, ulg'aymoq*. Bu fe'l leksemalar yoshi ortmoq umumiy ma'no belgisiga ko'ra o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi. Qiyoslang: *Qarimoq* - keksayish holatida bo'lmoq. Masalan: Otasi shu erda *qaridi* (T. To'la). Qodir ota endi *qarigan*. (Shuhrat).

Keksaymoq - qarigan, katta yoshga borgan holatga o'tmoq. Masalan: Endi hazrati Shohruh *keksaydilar*, yana shahzodalararo tag'in nizolar. (Oybek).

Qarimoq, *keksaymoq* so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, *keksaymoq* so'zi ma'nosida belgi darajasi ortiqroq. *Qarimoq* so'zlashuv nutqiga xos *keksaymoq*-kitobiy.

Ulg'aymoq- 1. Balog'atga, voyaga yetgan holatda bo'lmoq. Masalan: Men *ulg'aydim*, kurashlarning nash'alarin yemarib. (G'.G'ulom). Bizlar xushchaqchaq avlod dunyoda eng baxtiyor, *ulg'ayamiz* yayrab shod (I. Muslim). 2. Yoshi oshgan, yoshiga yosh qo'shilgan holatda bo'lmok. masalan: *Yoshimiz ulg'aydi*. (O. Matjon). Yoshi ulg'ayib, og'ir mehnat belini qiyshaytirgach ... (Shuhrat).

Ulg'aymoq - so'zi kichik va katta yoshdagi odamlarga nisbatan qo'llniladi. U kitobiy-poetik uslubga xos.

13. *Chanqamoq*, *tashnamoq*, *cho'llamoq*, *suv samoq*, *suv siramoq*. Qayd etilgan fe'l leksemalar suvga ehtiyoj ma'nosiga ko'ra o'zaro sinonimik aloqaga, mantiqiy bog'lanishga kirishadi. Qiyoslang: *Chanqamoq* - suvga, choyga tashna holatda bo'lmoq. Masalan: Ayamni har kuni yoki kun osha dard tutadi. Avval *xo'p chanqaydi*, keyin qo'llarining tomiri tortishadi. (A. Qahhor). Erta bilan sho'r narsa yegan edim, *toza chanqatyapti*. (Mirmuhsin).

Tashnalamoq - chanqoq, ancha suv talab holatga o'tmoq. masalan: Pilla shoshiradi, *poliz tashnalab*, uyda go'dagimiz qo'saydi ko'krak. (Zulfiya).

Cho'llamoq - *chanqash*, suvsash holatida bo'lmoq. Masalan: O'zi uzib yeganning mazasi boshqacha bo'ladi, axir shahardan *cho'llab* kelgansan. (F. Musajonov). Azonda *suv sab* uyg'onadigan odati bor. (A. Qahhor).

Berilgan til birliklari suvga ehtiyoj ma'nosiga, semantik belgisiga ko'ra sinonimik munosabatda bo'lib, *chanqamoq* uslubiy imkoniyatiga ko'ra betaraf-sinonimik qatorning yetakchisi hisoblanadi. U adabiy tilda ham, so'zlashuv nutqida ham ko'p qo'llanadi. Ma'no imkoniyati keng-insonga ham, hayvonga ham, ba'zan o'simliklarga nisbatan ham ishlatiladi.

Tashnalamoq, *cho'llamoq*, *suv siramoq* so'z ma'nolarida hissiy ta'sirchanlik bo'yog'i ortiq. ayniqsa, *tashnalamoq*. *suv siramoq* ma'nolarida ushbu buyoq

ortiqroq. Ya'ni bu so'zlarda suvga talab, ehtiyoj darajasi yuqori. Bularga qiyosan *cho'llamoq, suvsamoq* ma'nolarida esa belgi darajasi kam. Ammo bularning o'zaro qiyosan olganda *cho'llamoq* ma'nosida belgi darajasi sal ortiqroq.

3.3. Mavzu yuzasidan dars ishlanma

Mavzusi: Ma'nodosh so'zlar

Fan: Ona tili

Sinf: 5-sinf

Sana: IV chorak

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ma'nodosh so'zlar bo'yicha nazariy ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga ona tilimizning boy leksik imkoniyatlarini ochish orqali ularda ma'naviy meroslarimizga bo'lgan shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni ona tiliga, kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning dunyoqarashini kengartirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar : "Rebus", "Mosini toping", "Quyosh", "So'zlar zanjiri" usullari.

Darsda foydalanilgan jihozlar: darslik, tarqatma materiallar, rag'bat kartochkalari, ko'rgazmali qurollar.

Darsning blok sxemasi:

T/R	Darsning borishi	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Uyga vazifani so'rash	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa

4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	5 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning shiori :

Kitob bilim bulog'i –o'quvchining o'rtog'i.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Dastlab o'quvchilar uch guruhga bo'linadi : **1-guruh** - "Kitobxonlar ",**2-guruh** –"Bilmdonlar", **3-guruh-** "Zukkolar".

II. Uyga vazifa so'rash:

Uyga vazifa "Rebus" usuli asosida so'raladi .

Bunda o'quvchilar paronim so'zlarning ta'riflarga qarab jadvalda ko'rsatilgan qo'shtirnoq va raqamlar ostiga yashiringan so'zlarni topadilar .

REBUS	TUSHUNCHA	TA'RIF
””” 		1.Bug`doysimon g`alla o`simligi 2.Cholg`u asbobi
”” 		1.Hayvonlar shohi. 2. Shoirlar ijod mahsuli.
””””” 		1.Cholg`u asbobi 2. Temiryo`l vagoning dahlizsimon bo`lmasi
””” 		1.shirinlik turi 2.Raqam
2, 20, 17, 28		1.Yulduzlar turkumi to`dasi

		2.Vazifa, ixtiro
3, 1, 17, 18		1. O`quv ishining tashkiliy formasi 2.Devor,taxtaning yorig`i
1, 18, 8, 17		1.Tutqun odam 2.100 yil
1, 2, 24, 1, 11		1.Egar, yugan,jabduq 2.Yaxshi, a`lo,ortiq
1, 24, 8, 12		1.G`oyat, kata, ulkan 2.Qat`iy qaror , jazm

Topshiriqni to`g`ri bajargan guruhlarga rag`bat kartochkasi beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni. Mavzuni tushuntirishda quyidagi ta`riflardan foydalaniladi.

So`ng o`quvchilarga ma`nodosh so`zlar qatori berilib,bosh so`zni topish va ular qanday ma`no ifodalayotganini haqida ma`lumot beriladi.

Bir umumiy ma`noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so`zlarga ma`nodosh so`zlar deyiladi.Ma`nodosh so`zlar bir ma`noni xilma-xil so`zlar orqali turli nozik ma`no qirralari bilan ifodalashda ,so`z sehrini namoyish etishda ,nutqni bezashda , ta`sirchanligini ta`minlashda katta ahamiyatga ega.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

505-mashq .Mashqni o`qing . Bir umumiy ma`noni ifodalovchi so`zlarni toping. Ularning ma`nosini izohlang.

Ushbu mashq **“Mosini tanlang” usulida** bajariladi. Bunda o`quvchilar ma`nodosh so`zlarning juftini topishi kerak bo`ladi.

Yuz,aft, bashara, chehra, oraz, jamol, turq...

1.Yuzi nam, yaltiroq o`tloqning betida yuk mashinalarining behisob izlari ko`rinib turardi .

2.Uning quvnoq chehrasi suv betida qizga yanada yoqimli ko‘rinardi .(I. Rahim)

3.Basharasiga tushgan qamchi zarbidan yerga yiqildi.(Mirmuhsin)

506-mashq. Bu “**Quyosh**” usuli orqali bajarlinadi. Berilgan so‘zlardan ma’nodosh so‘zlar qatorini toping va ” quyosh” nurlariga joylab qo‘ying.

Bahs, sovg‘a , tanqis, g‘alaba, gunoh , hadya, ayb , munozara, pinhon, tortiq, kamchil, jinoyat, tortishuv, armug`on, taqchil, zafar, tuhfa, maxfiy.

507-mashq. Ko‘chiring. Ma’nodosh so‘zlarni aniqlab, ma’nodosidagi farqini tushuntiring.

Dalamizda salqin shabboda esdi. Ulug` Madhiyaning yangroq ohangini olib ketadi tungi sho‘x sabo.

Yel keltirar mayin bir ohang,

Yana olib ketar nariga.

Saharlab turaman, tongni,

Bo‘ynimga osilar subh shamoli .(Mirmuhsin)

Mashq bajarilgandan keyin “**So‘zlar zanjiri**” usuli bajariladi. Ma’nodosh so‘zlardan zanjir hosil qilish kerak bo‘ladi. U quyidagicha bo‘ladi:

UMUMIY XULOSALAR

Soʻz til va nutqning muhim birligi sifatida aloqa-aralashuv jarayoni uchun faol xizmat qiladi. Soʻz shakl va maʼno munosabatining birligidan iboratdir.

1. Tilimiz lugʻat tarkibida maʼno jihatidan oʻzaro yaqin soʻzlar katta leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. aniqrogʻi, ikki yoki undan ortiq soʻzning maʼno jihatidan yaqinligi-maʼnodoshligi asosida sinonimik munosabat hosil boʻladi. Ikki yoki undan ortiq soʻzning sinonimligi ularda hammasi uchun umumiy maʼnoning borligini koʻrsatadi.

2. Oʻzaro sinonimik munosabatda boʻlgan soʻzlar sinonimik qatorni hosil qiladi: boʻkmoq, ivimoq; oʻchmoq, soʻnmoq; oʻyin. raqs; sel, jala; janjal, gʻalva va boshqalar.

3. Sinonimlarning oʻzaro farqli xususiyatlari ancha boʻlib, bularda eng asosiysi, muhimi ularning har birining maʼnosidagi farqli belgilaridir. Masalan, *yordamlashmoq*, *koʻmaklashmoq*, *qarashmoq*, *boqishmoq* soʻzlari «*yordam koʻrsatmoq*» maʼnosi bilan oʻzaro sinonim. ammo bu sinonim soʻzlar ichida *yordamlashmoq* soʻzining maʼno hajmi keng. *Koʻmaklashmoq*, *qarashmoq*, *boqishmoq* soʻzlari, asosan, ish-harakat, xizmat bilan yordam koʻrsatish maʼnosida qoʻllanadi.

4. Sinonimlar emotsional boʻyoqqa boʻlgan munosabatiga koʻra, emotsional boʻyoqli, ayrimlari esa emotsional boʻyoqsiz boʻlishi mumkin: bosh, kalla, miya.

5. Emotsional boʻyoqli sinonimlar ijobiy boʻyoqli yoki salbiy boʻlishi mumkin. Masalan, *jilmaymoq*, *tirjaymoq*; *chehra*, *bashara*.

6. Oʻzbek tilining lugʻat tarkibida sinonimlar - leksik sinonimlar-leksik sinonimlarning aniq koʻrinishi boʻlgan ot va feʼl sinonimlar katta leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Ot va feʼl turkumiga oid soʻzar oʻzaro sinonimik munosabatni sinonimik qatorni hosil qiladi.

7. Ot sinonimlar ham, feʼl sinonimlar ham tilimizning lugʻat boyligi sifatida fikr almashish jarayonida faol qoʻllanadi: *avlod*, *boʻgʻin*; *alanga*, *yolqin*; *ashulachi*, *xonanda*, *qoʻshiqchi*; *gʻazablanmoq*, *jahllanmoq*; *ozmoq*, *oriqlamoq*.

8. Sinonimlarning qator ko‘rinishlari ichida leksik sinonimlar sinonimiyaning eng faol qo‘llanadigan turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Aniqrog‘i leksik sinonimlar aslida so‘z sinonimlaridir. Leksik sinonimlardan kommunikatsiya jarayonida eng ko‘p qo‘llanadigan faol turlaridan biri fe‘l turkumiga oid fe‘l sinonimlardir.

9. Leksik qo‘llash asosida, shuningdek, frazeologik qo‘llash asosida sinonimiya hosil bo‘lmaydi. Chunki qo‘llash leksik ma’no deb qaralmaydi. Sinonimiya esa til birliklari orasidagi munosabatda tug‘iladi.

10. Leksik ma’no bilan leksik qo‘llash orasidagi sinonimik munosabat *kontekstual sinonimiya* deb nomlanadi. Kontekstual sinonimiya rang-barang ko‘rinishlarga ega. Bunday sinonimik munosabat har gal nutqning o‘zida voqe bo‘ladi, shu konkret nutqdan tashqarida nutqqa chiqadi. Masalan, A. Qahhorning *“Sinchalak”* povestiga taqriz yozganda har gal A.Qahhor deb qaytaraverish uslubni buzadi. Shu sababli kontekstual sinonimiyadan keng foydalaniladi: bir o‘rinda *adib* deyilsa, ikkinchi o‘rinda *yozuvchi* deb, uchinchi o‘rinda asar *muallifi* yoki *muallif* deb ishlatiladi. Lug‘aviy birliklar sifatida adib, yozuvchi, muallif so‘zlari o‘zaro sinonimlar emas, ammo ma’lum kontekst doirasida bu so‘zlar o‘zaro va A.Qahhor atoqli otiga kontekstual sinonim bo‘ladi.

11. *Sinonimiya munosabatini belgilashda til taraqqiyotining muayyan bir bosqichi nazarda tutiladi va lug‘aviy birliklarning xuddi shu davrdagi o‘zaro ma’no munosabati asosida muhokama yuritiladi. Har xil ijtimoiy tuzumga taalluqli tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar ham o‘zaro sinonim deb qaralmaydi. Chunki bular ma’no jihatidan har qanday o‘xshash bo‘lsa ham, ayni bir ma’noni anglatmaydi. Masalan, sudya va qozi, politsiya, mirshab va militsioner so‘zlari alohida-alohida ma’noni anglatuvchi so‘zlardir.*

12. Sinonimiya tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko‘rsatib turuvchi hodisalardan biridir. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning bir qirradi bo‘rtadi.

13. *Sinonimlardan yana nutqni ravon qilib tuzishda, qaytariqlardan qochishda, shuningdek, tovush noqulayligini bartaraf qilishda unumli*

foydalaniladi. Bulardan tashqari, sinonimlar asosida juft soʻz tuziladi. Bunday juft soʻzlarda maʼno kuchayadi, umumlashadi: *or-nomus, baxt-saodat* kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Болганбаев А. Синонимика имен существительного в казакском языке. Автор.доктор.дис.филол.наук. Алматы. -1955.
2. Bolg'anbayev A. Qozoq tilining sinonimlar lug'ati. Olmaota:1962.
3. Bekbergenov A. qoraqalpoq tilidagi sinonimlarning paydo bo'lish yo'llari. O'zSSR Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, №2, B:84-91.
4. Berdimuratov E. Hazirgi zaman qaraqalpaq tili (leksika). – Nøkis: Qaraqalpaqstan, - 1964.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. – M., 1981.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati 2 tom. – M., 1981.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T., 1995.
8. Rasulov R. O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi. – T., 2001.
9. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2001.
10. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T., 1974.
11. Mirzaev M., Usmanov S., Rasulov I. O'zbek tili. – T.,1978.
12. Tursunov X., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 1975.
13. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T., 1993.
14. Rasulov R., Narzieva M. Leksikologiya o'rganish. – T., 1992.
15. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.,1985.
16. Qalandarov M. Синонимы в каракалпакском языке. Автореф. дис.канд.филол.наук. – Nukus: Qaraqalpaqstan,1979.
17. Qalenlerov M. Qaraqalpaq tilidagi sinonimler. –Nukus,1979.
18. Qalenderov M. Qaraqalpaq tilidagi sinonimlarning grammatikalıq, strukturalıq ham leksika semantikalıq özgeshelikleri. – Nukus: Qaraqalpaqstan,1989.
19. Qo'chqortoev I. Lug'aviy sinonimik vostalar va ularning asosiy turlari. «O'zbek tili va adabiyoti», 1984, 4-son, B:3-8.ə